




**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA KAFEDRASI**

**UMUMIY PEDAGOGIKA** fanidan

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



**Namangan - 2023**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA KAFEDRASI**

**UMUMIY PEDAGOGIKA** fanidan

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Tuzuvchi:**

**Pedagogika kafedrasи  
dotsenti D.Inamov**

**Namangan - 2023**

## MUNDARIJA

SO'Z BOSHI.....	
I. MARUZA MATERIALLARI.....	
1-MARUZA.Pedagogik mahorat haqida tushuncha.....	
2-MARUZA. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari .....	
3-MARUZA.O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat .....	
4-MARUZA.Kommunikativ malakalar va ta'sir etish .....	
5-MARUZA.O'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi...	
6-MARUZA.Pedagogik takt va pedagogik etika.....	
7-MARUZA.Pedagogik tehnika.....	
8-MARUZA.Nutq texnikasi va madaniyati.....	
9-MARUZA.O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish .....	
10-MARUZA.O'z- o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash.....	
11-MARUZA.Pedagogik tajribani to'plash tizimi .....	
II. SEMINAR MASHG'ULOTLARI.....	
1-SEMINAR.Pedagogik mahorat haqida tushuncha.....	
2-SEMINAR. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari .....	
3-SEMINAR.O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat .....	
4-SEMINAR.Kommunikativ malakalar va ta'sir etish .....	
5-SEMINAR.O'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi...	
6-SEMINAR.Pedagogik takt va pedagogik etika.....	
7-SEMINAR.Pedagogik tehnika.....	
8-SEMINAR.Nutq texnikasi va madaniyati.....	
9-SEMINAR.O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish .....	
10-SEMINAR.O'z- o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash.....	
11-SEMINAR.Pedagogik tajribani to'plash tizimi .....	
III. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI.....	
IV. GLOSSARIY.....	
V. ILOVA	
1. Fan dasturi.....	
2. Ishchi dastur.....	
3. Tarqatma materiallar.....	
4. Test.....	
5. Baholash mezonlari.....	

## **Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni va ahamiyati**

### **REJA:**

1. Pedagogik faoliyat va uning xususiyatlari.
2. O'zbekistonda pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo'yiladigan talablar.
3. "Pedagogik mahorat" tushunchasining mohiyati.
4. Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari.
5. Pedagogik mahoratni shakllantirishning asosiy tamoyillari.
6. Bo'lajak o'qituvchi professiogrammasi.

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:**

«Pedagogik mahorat» fanining tarixi, fanning maqsadi, vazifalari, pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat, pedagogik qobiliyat, pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi, umumiy pedagogik madaniyat, pedagogik mahoratni egallash bosqichlari.

Inson paydo bo'lgandan beri tarbiya jarayoni mavjud, tarbiya paydo bo'lgan vaqtidan buyon o'qituvchilik-pedagogik faoliyat uzlusiz davom etib kelmoqda. O'qituvchilik, tarbiyachilik kasbi barcha ijtimoiy tuzumlarda sharafla va o'ta ma'suliyatli, qiyin va murakkab kasb hisoblangan.

Jamiyat, fan va madaniyatning rivojlanishi ta`lim va tarbiya ishlarining qay yo'sinda olib borilishiga bog'liqdir. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va barkamol shaxs taqdiri bilan bog'liqligini unutmagan holda, ushbu muammoni mahoratli, bilimli pedagoglar faoliyatiga tayanib echish mumkinligini unutmasligimiz lozim. O'qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi, shunday ekan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "...hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri bularning barchasi, avvalombor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammozi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab etmoqdamiz".

"Ta`lim to'g'risida" gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta`lim sohasida amalga oshiriladigan ishlarning maqsadi, vazifalari va yo'nalishlarini belgilab berdi. Bu vazifalarni amalga oshirish, avvalo o'qituvchiga, uning bilimi va kasb mahoratining shakllanganlik darajasiga bog'liq. Zero, o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni nechog'lik vijdon, aql va pedagogik mahorat bilan bajarilishi jamiyat kelajagini ta'minlovchi muhim omildir.

Pedagogik mahorat asoslari fanining paydo bo'lishi buyuk pedagog A.S.Makarenko (1889-1939) nomi bilan bevosita bog'liq. U bolalar kalonnasidagi faoliyatida, ya'ni faqat tarbiyasini emas, ma'naviy qiyofasini ham yo'qotgan bolalar bilan ishlab, ularning benihoya hurmati va ishonchiga sazovor bo'ldi. Shaxsiy tarbiyaviy usuli bilan butun olamga mashhur bo'lganligining o'zi ham

A.S.Makarenkoning yuksak pedagogik mahorat cho'qqisiga erishganligining yaqqol dalilidir. 1988 yil YUNESKO qarori bilan uning 100 yilligiga "Makarenko yili" deb e'lon qilindi.

A.S.Makarenko bo'lajak pedagog talabalik davridayoq pedagogik mahorat sirlarini o'rganish zarurligini ta'kidlab, shunday deydi: "Nima uchun oliv texnik o'quv yurtlarida materiallar qarshiligi o'qitiladi-yu, pedagogik o'quv yurtlari tarbiya jarayonida, unga shaxsnинг qarshilik ko'rsatishi haqidagi fan o'qitilmaydi?"

Buyuk pedagogning bu fikriga Ukraina pedagogika instituti olimlari katta mas'uliyat bilan qarashdi. Ular bir necha yillar davomida Makarenko pedagogik mahorati maktabini, mavjud bo'lgan ilg'or nazariyot va amaliyotni atroflicha tahlil qilishdi. Natijada 1979 yili "Pedagogik mahorat asoslari" fani yaratildi va u barcha oliv pedagogika o'quv yurtlarida o'qitila boshlandi. Bu fanning tuzilish prinsipining o'ziga xosligi shundaki, u pedagogda shaxs va jamoaga ta'sir eta olishni ta'minlaydigan va turli fanlarga bog'liq bo'lgan bilimlarni tanlab, ularni o'zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham fan dasturiga pedagogik mahorat mohiyati, o'quvchiga ta'sir etish vositalari va usullari kabi pedagogik mahoratning odatdagi masalalaridan tashqarii, teatr pedagogikasi va notiqlik san`ati haqidagi ma'lumotlar ham kiritilgan. Bu fanni o'rganish pedagogika, psixologiya, metodika va boshqa pedagogik fanlardan egallangan bilimlarga asoslanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "Pedagogik mahorat asoslari" fanining maqsadi talabalarda pedagogik jarayonni mustaqil, yuqori saviyada tashkil etish va o'z faoliyatida eng yuqori samaradorlikka erishish malakalarini shakllantirish bo'lib hisoblanadi. Bu maqsadga erishish quyidagi vazifalarni hal etish, bo'lajak pedagog shaxsida ba'zi bir xislatlarni tarkib toptirish bilan bog'liq:

- insonparvarlik xislatlarini rivojlanirish;
- kasbiy mustaqillik, ishchanlik, hissiy barqarorlik, o'z ishiga ijodiy yondoshish xislatlarini tarkib toptirish;
- pedagogik takt va pedagogik texnikadan oqilona foydalanishni shakllantirish;
- nutq texnikasini, o'z tovushi va gavdasini boshqarish, jamoaga va shaxsga ta'sir ko'rsatish qobiliyatlarini takomillashtirish.

Pedagogik mahorat- bu o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, talabalarda (o'quvchilarda) dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir.

### **Pedagogik maqsadning o'ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:**

1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyiligi (ketma-ketligi)ni ta'minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o'tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.
2. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o'z

faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta`kidlaganidek: "Ishonch bilan gapir, anna shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilishi ham o'z-o'zidan kelaveradi".

3. Pedagogik (ta`lim-tarbiya) jarayonida o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki-pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyatini mantiiqini o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarini "o'sib" uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;
- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondoshishi;
- o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining alohida xususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarning idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta`kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.
2. Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalananish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.
3. O'quvchilarga pedagogdan tashqarii, atrof muhit, ota-onas, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

O'quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo ta`lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda

bularning ta`lim-tarbiya jarayoniga ta`siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta`sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmaslik lozim.

Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- pedagog shaxsini insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo'nalishalri va ideallarining oliv maqsad - barkamol avlod tarbiyalab etishtirishga yo'naltirilganligi;

- mutaxassislik fanlari, o'qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga ega bo'lish;

- pedagogik qobiliyatga ega bo'lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan o'qib olish);

- pedagogik texnikani egallash, ya`ni o'z-o'zini boshqara olish, o'zaro ta`sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.


Pedagogik mahorat o'ziga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, mактаб haqidagi, ta`lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatalishdan nariga o'tmaydi.

Biroq, zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi - maxsus bilimlar va malakalar-bolalarni kuzatish, ularning o'sishdagи muhim narsalarini aniqlay olish, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli o'zaro ta`sirini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yantuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo'ladi.


Shunday qilib, pedagog-muallim o'z mahoratiga quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin:

1. Pedagogika-psixologiya fanlarini chuqur o'rganish;
2. Maxsus fanlar, ularni o'qitilish metodikasini chuqur bilish;
3. Pedagogik amaliyatda faol igshtirot etish va uni samarali o'tkazish;
4. O'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish;
5. O'z ustida mustaqil ishslash, malaka oshirish kurslarida o'qib borish.

## **BO'LAJAK O'QITUVCHINING PROFESSIONAL PROGRAMMASI.**



### **Bo'lajak o'qituvchi uchun zarur bo'lgan malakalar**



## Kommunikativ malakalar

O'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar va jamoatchilik vakillari bilan munosabat va aloqalar o'rnatma bilish.

O'quvchilar fikrini tushunish va o'z fikrini nutq, til vositalari orqali tushuntira bilish

O'quvchilar jamoasini, qiziqishlarini, ichki munosabatlarini idora qila bilish

O'quvchilar bilan yaqin munosabatda bo'lish va ularda o'ziga nisbatan mehrishonch, hurmat kabi xistlatlarni uyg'ota bilish

## Amaliy malakalar

Rasm solish

Sport bilan shugullanish

O'yinlar tashkil qilish

Musiqani tinglash

Sayohat qildirish

Pazandachilik

## Kasbiy sifatlar

Maktabda sınıf rahbarligi ishlarini faol amalgam oshira bilish

Jamoatchilik va ota-onalar o'rtaсидаги ishlarni tashkil eta bilish

## Tikuvchilik




Bilimdonlik

Fuqarolik burchini angash

Kasbga e'tiqodlilik

Adolatlilik

O'zini tuta bilish



### **Nazorat savollari:**

1. «Pedagogik mahorat asoslari» fanining vujudga kelish tarixi haqida nimalar bilasiz?
2. Fanning maqsadi va vazifalari qanday?
3. Kasbiy va pedagogik mahorat tushunchalarini izohlang.
4. Umumiyligpedagogik madaniyatga nimalar kiradi?
5. Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
6. Pedagogik qobiliyatlarni tasvirlab bering.

## O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYAT.

### REJA:

1. "Qobiliyat" va "pedagogik qobiliyat" tushunchalarinih mohiyati.
2. Pedagogik qobiliyatning psixologik- pedagogik mazmuni..
3. Pedagogik qobiliyatlarning asosiy turlari.
4. O'qituvchiga xos bo'lgan irodaviy va hissiy sifatlar.
5. Bo'lajak pedagoglarda pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish.

### Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Pedagogik qobiliyat, didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, pertseptiv qobiliyat, nutqiy qobiliyat, tashkilotchilik qobiliyati, nufuzga ega bo'lish qobiliyati, psixologik tashxis qobiliyati, konstruktiv qobiliyat gnostik qobiliyat, qobiliyatni tarkib toptirish.

Pedagogik qobiliyatlar, deb ataladigan qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsional- irodaviy tomonini ham xarakterlab beradi. Bu sifatlarning hammasi biri- biri bilan hosil qiladi.

Psixologiyada qobiliyatlarga shunday ta`rif beriladi:

**Qobiliyatlar-** shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatdir.

Pedagogik psixologiyada o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o'rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib boriladi.

Yirik psixolog S.L.Rubinshteyn ta'kidlab o'tganidek, pedagogik jaroyon o'qituvchi- tarbiyachining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi bola shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning o'quvchi faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishga yoki aksincha, unga ehtiyoj sezmasligiga bog'liq. Bola shaxsning rivojlanishida o'qituvchining roli benihoya muhimdir, chunki u ta'lim va tarbiya jaroyoning tashkilotchisi vazifasini bajaradi. Shu bois, hozirgi sharoitda o'qituvchining tashkilotchilik qobiliyatiga nisbatan yuksak talab qo'yiladi, shuning uchun ijtimoiy- tarixiy tajribalarning boyligi ehtiyojlar ko'lamenti ortishiga bevosita bog'liq.

70-80 yillarda o'qituvchining xarakter xislatlari, pedagogik qobiliyatları, unda tarbiyachilik mahoratini tarkib toptirish shartları chuqr o'rganildi.

Jumladan, rus olimasi N.V.Kuz'mina o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning o'rni va ularni tarkib toptirishga oid qator ilmiy tadqiqot ishlarni olib borgan. U o'z tadqiqotlarida pedagogik qobiliyatlarni.

**Gnostik (bilishga oid)**

## **Proektiv (oldindan rejalashtirishga qaratilgan)**

**Konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ** turlarga ajratib ularning, har biriga chuqur psixologik tasnif bildiradi. N.V.Kuz'mina pedagogik qobiliyatning muhim alomatlari qatoriga kuzatuvchanlikni ham kiritadi, o'qituvchining bu hislari o'quvchining ichki kechinmalarini, his- tuyg'ularini kabi omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

O'qituvchida kuzatuvchanlikning paydo bo'lishi natijasida u diagnostik sifatni vujudga keltiradi.

Tadqiqotchi A.I. Shcherbakov fikriga ko'ra, pedagogik faoliyat- bu o'qituvchi oldiga jiddiy talablar qo'yadigan murakkab psixologik aktdir. Pedagogik faoliyat o'qituvchini chuqur va puxta bilimga, pedagogik qobiliyatiga, mustahkam xarakterga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lishini taqazo qiladi. I.A.Shcherbakov o'qituvchi shaxsi 6 ta kasbiy- tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta`kidlaydi:

1. Yuksak saviyadagi bilim va madaniyat
2. Yo'nalişning aniq ifodalanganligi.
3. Yuksak axloqiy hislarning mavjudligi.
4. Yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik.
5. Qat`iy va silliq xarakter.
6. Pedagogik qibiliyatlar.

Yirik olim F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi:

1. Didaktik qibiliyatlar.
2. Akademik qibiliyatlar.
3. Pertseptiv qibiliyatlar.
4. Nutq qibiliyatları.
5. Tashkilotchilik qobiliyati.
6. Avtoritar qibiliyatlar.
7. Kommunikativ qibiliyatlar.
8. Pedagogik xayolot.
9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati.

F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish bosqchilari, xususiyatlari va xossalari to'g'risida mukammal ma'lumotlar beradi. Ta`lim va tarbiya jaroyonini takomillashtirishda pedagogik qobiliyatlarning roli tajriba materiallariga asoslanib sharhlab beriladi.

Yirik o'zbek olimi S.R. Rajabov va uning yuzlab shogirdlarning ishlari ham o'qituvchining pedagogik va psixologik xususiyatlarini o'rganishiga.

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, bizningcha, o'qituvchining pedagogik qibiliyatlarini qo'yidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

1. **Didaktik qobiliyat-** bu oson yo'l bilan murakkab bilimlarni o'quvchilarga tushuntira olishdir.. Bunda o'qituvchining o'quv materialini o'quvchilarga

tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'ota olishi ko'zda tutiladi. O'qituvchi zarurat tug'ilgan hollarda o'quv materialini o'zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila oladi.

2. **Akademik qobiliyat**- barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lган o'qituvchi o'z fanini o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chukurroq biladi, o'z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan- texnika, ijtimoiy- siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko'п narsalarni o'rganib boradi.
3. **Pertseptiv qobiliyat**- qisqa daqiqalarda o'quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lган psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o'qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lмаган tashki belgilar asosida o'quvchi ruhiyatdagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.
4. **Nutqiy qobiliyat**- ixcham, ma`noli, oxangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lган nutq; shuningdek, o'qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishi . Qobiliyatli o'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma`qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapiroayotgan narsaga karatilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi o'quvchi uchun aniq, soda, tushunarli bo'ladi.
5. **Tashkilotchilik qobiliyati**- sinf- guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste`dodi. Tashkilotchilik o'quvchilarni xilma- xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan o'quvchilar jamoasini uyushtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa, ikkinchidan, o'z shaxsiy ishini to'g'ri uyushtirish qobiliyatidir.
6. **Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati**- o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql- farosatli, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi- avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Obro'ga ega bo'lish o'qituvchi shaxsiy sifatlarning butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga ( dadililigi, chidamliligi, qat`iyligi, talab talabchaligi va xakazo) shuningdek, o'quvchilarga ta`lim hamda tarbiya berish ma'suliyatini his etishga, bu ishonchni o'quvchilarga ham etkaza olishiga bog'liq bo'ladi.

### **Qaysi o'qituvchi hurmatga sazovar?**

1. O'qituvchimizning zo'r lamasdan va baqirmasdan talab kila olishdek ajoyib juda yumshoq-da, uni aldash xislati bor. xech gap emas.
2. Biz uni qattiqo'l va talabchan 2. Uning qanday odam ekanligini

Bo'lganligi uchun juda yaxshi ko'ramiz, tushunib bo'l maydi: bir qarasang U hamisha osoyishtalik bilan ta'sir etadi qattiqqo'l, bir qarasang osoyishtalik va muloyimlik bilan talab qiladi, biroq shunday ta'sir etadiki, unga chidayotganimizni bilmasdi.

3. Ximiya o'qituvchimiz hamisha 3. Biz P.I ning ketganidan juda Xotirjam o'zini tutgan odam va xursandmiz.U bizni Baqirib-chaqirib, Shu xislati bilan butun sinfga buyruk berishlar bilan qo'lga olmoqchi qattiq ta'sir ko'rsatadi edi, ammo unga majburan qulq solmay ilojing yo'q.
4. Har qanday sharoitda ham u o'z 4. Biologiya o'qituvchisining obro'yini obro'sining saqlanishiga saqlamay ko'r-chi erishadi.

7. **Kommunikativ qobiliyatlar-** muomala va mulokot o'rnata olish, bolalarga arlashish qobiliyati, o'quvchilarga to'g'ri yondoshish yo'llini topa olish, ular bilan pedagogik nuqati nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.
8. **Psixologik tashxis (diagnoz) qobiliyati-** isnonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o'z harakatlarning oqibatlarini oldindan ko'rishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishi xakidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab etishtirishda, tarbiyanuvchining qanday fazilatlarning taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizga tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bog'liq bo'ladi.
9. **Diqqatni taqsimlash qobiliyati-** bir necha ob'ektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish. O'quvchi, o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari- xajmi, uning kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishning taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir.  
Qobiliyatli, tajribali o'qituvchini materialni bayon qilish mazmunini va shaklini, o'z fikrini ( yoki o'quvchi fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtida barcha o'quvchilarni o'z diqqat-e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat o'z shaxsiy xatti- xaraktlarini ( mimikasi, pantomimikasi, yurish- turishni) ham kuzatib boradi.

Tajribasiz o'qituvchi ko'pincha mavzuni bayon etilishga berilib ketib shu vaqt ichida o'quvchilarni e'tibordan chetda qoldiradi, nazorat qilmay qo'yadi, bordi-yu, o'quvchilarni diqqat bilan kuzatishga harakat qilsa, bayon qilish kalavasini yo'qotib qo'yadi.

10. **Konstruktiv qobiliyat-** o'quv- tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o'quvchi shaxsning

- rivojini loyihalashga, o'quv- tarbiya mazmunini, shuningdek, o'quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.
11. **Gnostik qobiliyat**- tadqiqotga layoqatlilik bo'lib, o'z faoliyatini, bu faoliyat jaroyonini va uning natijalarini tekshirish hamda o'rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.

Shuningdek zamonaviy o'qituvchi o'zida aqli donishlik qobiliyati, iymone`tiqodga, faol hayotiy pozitsiyaga yo'naltirish qobiliyati va tashabbusga, ijodga ilhomlantirish kabi qobiliyatlar bo'lishi zarurligi ko'zda tutilmoqda.

Pedagogik qobiliyatlarini har tomonlama o'rganish qobiliyatlar shaxsning aql-idroki, his-tuyg'usi va iroda sifatlarning namoyon bo'lishidan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik qibiliyatlar umumiyligi qobiliyat: masalan, adabiy va ilmiy ijod qilish, loyihalash, qobiliyatlar bilan bog'langan. Ular o'qituvchi faoliyatining samaradorligini oshiradi. Bunday o'qituvchilar o'z o'quvchilarini (talabalarni) ana shu faoliyatga jalb qila borib, ularga ta`lim va tarbiya berishda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

Pedagogik qibiliyatlar xarakter xislatlari bilan bog'langan. Uyushqoqlik, qat`iyilik, haqqoniyligini pedagogik faoliyat darajasining ortirishga olib keladi, aksincha, uyushmaganlik, ko'ngilchanlik,adolatsizlik pedagog faoliyati natijalarini pasaytiradi.

Har bir o'qituvchi o'ziga xos individual- psixologik xislatlarga ega bo'ladilar. Ulardan ba`zilari harakatchanroq, boshqalari sustkashroq, ba`zilari qattiqo'lroq, boshqalari yumshoqroq bo'ladilar. Bu xususiyatlarning hammasi juda yaxshi xususiyatlar bo'lib, ulardan foydalanishning ahamiyati katta. Bundan o'qituvchiga his- tuyg'ular, emotsiyalar yot narsa bo'lishi kerak, degan ma`no kelib chiqmaydi, aksincha u quvonishni ham, g'azablanishi ham, qayg'uga tushishi ham, xafa bo'lishi ham mumkin va lozim. Bu erda gap o'qituvchining qandaydir bir anjozadagi (qolipdagi) shaxsga barovlashtirish zarurligi to'g'risida emas, balki uning o'z individual sifatlaridan ustalik bilan foydalanishi, o'zida shaxsning zarur xislatlarni tarkib toptirishi, o'z kamchiliklariga barham berishi to'g'risida boradi.

### Nazorat savollari:

1. Pedagogik qibiliyatlar nima?
2. O'quvchilik davringizda qaysi o'qituvchilar sizga nima uchun katta ta'sir etganini eslang.
3. Pedagogik qibiliyatlarini aniqlashga oid olib borilgan ilmiy tadqiqotlar haqida nima bilasiz?
4. Pedagogik qibiliyatlarining qanday turlarga bo'lish mumkin?
5. Psixologik tashxis qobiliyatini tavsiflang.
6. Pedagogning obro'ga ega bo'lish qobiliyatini qanday tarkib toptirish mumkin?

## **KOMMUNIKATIV MALAKALAR VA TA'SIR ETISH.**

### **REJA:**

1. Muloqot va pedagogik muloqot haqida tushuncha.
2. Muloqot turlari va uslublari.
3. Pedagogik muloqotning asosiy vazifalari.
4. Pedagogik muloqot jarayonini boshqarish metodlari.
5. O'qituvchiga xos kommunikativ ko'nikmalar.
6. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish metodlari.

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:**

Pedagogik muloqot, muloqot funktsiyalari, shaxsni o'rganish axborot ayriboshlash, faoliyatini tashkil etish, muloqot elementlari, muloqot turlari, muloqotdagi kamchiliklar, avtoritar uslub, demokratik uslub, liberal uslub.

**Muloqot** - pedagog faoliyatining eng muhim professional qurolidir.

Pedagogik muloqot - qulay psixologik muhit yaratish maqsadida o'qituvchining o'quvchi bilan dars va undan tashqaridagi haqiqiy mulqotdir.

Hozirgi zamon psixologiyasi shaxslararo muloqotning ahamiyatini chuqr o'rganmoqda. Ayniqsa muloqot qonuniyatlarini bilish hamma muloqot o'rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish pedagog uchun, ayniqsa muhimdir. Negaki, uning kasbiga ko'ra vazifasi ham agar u o'quvchilarni o'zi bilan birgalikdagi faoliyatga unumli talab qila bilgan, tarbiyaning maqsadlari va vazifalariga javob bervadigan tarzdagi o'zaro birgalikdagi harakat va o'zaro hamjihatlikni yo'lga qo'ya olgan, ya'ni to'laqonli pedagogik muloqotni o'rнata olgan taqdirdagina, muvaffaqiyatli hal etilishi mumkin.

Pedagog faoliyatining didaktik va xususan tarbiyaviy vazifalarini o'qituvchi bilan o'quvchilar jamoasi o'rtaсидаги sermahsul muloqot jarayonini tashkil etmasdan turib etarli darajada unimli tarzda amalga oshirib bo'lmaydi. Shu tariqa pedagog faoliyatida muloqat;

**Birinchidan,** xususan o'quv va o'quv vazifalarini hal etish vositasi sifatida;

**Ikkinchidan,** tarbiyaviy jarayonini ijtimoiy psixologik jihatdan ta'minlovchi tizim sifatida;

**Uchinchidan,** o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtaсида та'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatli olib borishiga imkon beradigan o'zaro munosabatlarning muayyan tizimini tashkil etish usuli sifatida;

**To'rtinchidan,** buningsiz maktab o'quvchisining individga xos xususiyatlarini tarbiyalab bo'lmaydigan jarayoni sifatida maydonga chiqadi.

**Pedagogik muloqot deganda**, pedagog va o'quvchilar jamoasio'rtasida o'zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayrboshlashdan, hamjihatlikni tashkil etishdan iborat tizimi, usullari va malakalari tushuniladi. Pedagog ushbu jarayonning tashabbuskori sifatida maydonga chiqadi va uni tashkil etadi va unga boshchilik qiladi.

1. Sinf - guruh bilan bo'ladigan muloqotni pedagog tomonidan modellash (loyixalash).
2. O'zaro ta'sir ettirishning dastlabki onlarida bevosta faol muloqot olib borish (kommunikativ hujum).
3. Pedagogik jarayon davrida muloqotni boshqarish.

Muloqotning har bir elementlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- ✓ Darsga tayyorgarlik ko'rishda uning mazmunini oldingi dars mazmuni bilan bajarish va u faqat o'qituvchi qarashi bilan emas, balki o'quvchilar shaxsi tomonidan ham o'ylab tuzilishi kerak.
- ✓ Kommunikativ hujum o'z - o'zidan ma'lum, bunda o'qituvchi barcha o'quvchilarni tezda jalb qilish texnikasini bilish, dinamik ta'sir va o'zini salovatli qilib ko'rsatish usullarini egallashi zarur.
- ✓ Muloqotni boshqarish bosqichida o'quvchilar tashabbusini ma'qullah, diologik muloqot olib borish, sharoitiga moslab o'z fikriga tuzatish kiritish lozim.
- ✓ Va nihoyat muloqotni tahlil qilish, uni maqsad, mazmun va natijasini taqqoslashdir.

Tabiiyki o'qituvchi muloqotni o'quv-tarbiyaviy jarayonini tashabbuskori bo'lish zarur. Bunda:

- ✓ Muloqotning dastlabki qismida tezkor bo'lish;
- ✓ Biz sezgisini vujudga keltirish;
- ✓ O'quvchilarga ta'sir etishda shaxs aspektlarini kiritish;
- ✓ O'zini sinf haqida ijobjiy fikrga ega ekanligini bildirish, sezdirish.
- ✓ O'quvchilarning ichki hissiyotlarini tushunish.

Pedagoglar tomonidan turli tipdagi rahbarlarning aniq ijtimoiy psixologik qiyofasi yaratilgan. Ularning jamoa bilan muloqot texnikasi doimo tahlil qilib boriladi. O'qituvchi ham rahbar sifatida bolalar faoliyatini boshqaradi. Ular bilan turli xil muloqotda bo'ladi.

Rahbarlik muloqoti 3 turga bo'linadi.

1. **Avtoritar uslub** - tarang tortilgan kamon. O'quvchilar bilan avtoritar munosabatda bo'luvchi o'qituvchilar odatda majburiy, qattiq talablarni qo'yishi (o'qituvchiga itoat etish, dars vaqtida asosan jim o'tirish, savollarga albatta qo'l ko'tarib, o'qituvchining ruxsati bilan javob berish, o'qituvchining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarish va xakozo) orqali ish yuritadilar. Bunday o'qituvchilar o'quvchilarni qiziqish, layoqat, xoxish-istikclarini hisobga olmay, asosan o'quv rejasiga amal qiladilar. Darsni ham o'zlarining fikrlari va xoxish-istiklariga ko'ra rejalashtiradilvar. Dars jarayonida baxs, munozara uchun etarli imkoniyat berilmaydi. Bu uslubda ishlovchi o'qituvchilar o'quvchilarning mustaqil fikrashchlari emas, balki o'rgatayotganlarini o'zlashtirishlari muhimdir.

Shuning uchun dars davomida o'qituvchining o'zi gapiradi. Bu uslubda ishlovchi o'qituvchilar o'quvchining o'zigagina xos bo'lgan ba'zi psixologik xususiyatlarini nazardan chetda qoldiradilar. Bunda o'quvchilar faoliyati, kim-kim bilan o'tirishi, ishlashini faqat o'qituvchi belgilaydi, ularning tashabusini o'ziga xos qiziqishlarini tan olmaydi. Asosan buyruq, ko'rsatma, yo'lanma berish va xayfsan e'lon qilish bilan o'quvchilarga ta'sir etadi. Xatto juda kam aytildigan tashakkurnomalar ham buyruq va nafsoniyatiga tegadigan ohangda aytildi: «Bugun yaxshi javob berding, sendan buni kutmagan edim?»

Bunda o'qituvchi o'quvchi xatosini ko'rganda uning ustidan kuladi, uning xatosini tuzatish yo'llarini ko'rsatmaydi. Bu usulda o'qituvchi boshliq ohangida gapiradi, boshqalar gapini qabul qilmaydi. Ularga qattiqqo'llik bilan boshqarish xususiyati xos. Bunday o'qituvchilarning o'quvchilari dars davomida mustaqil fikrlay olmaydigan, birovning ko'rsatmasiga ko'ra ish yuritadigan, o'ziga past baho beradigan kamgap, tortinchoq, ko'p hayojonlanadigan bo'lishlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'qituvchilarning avtoritar uslubda ishlash sabablari quyidagilardan:

1. O'qituvchi ko'p yillar davomida avtoritarizm zaminida tarbiya topganligi;
2. Ta'lim tizimida o'quvchilarga ko'proq akademik bilimlar berilishini ustuvor bo'lganligi;
3. O'qituvchilarda psixologik bilimlarning etishmasligi;
4. Boshqarish uslubida buyruqbozlik, aytganini qildirish va ortiqcha nazoratning singib ketganligi;
5. O'qituvchida o'quvchi shaxsi rivojini diagnostika qilish malakasining kamligi;
6. O'qituvchining salbiy individual psixologik xususiyati (o'z shaxsini ustun qo'yish, qattiqqo'llik, befarqlik va xakozo)

**2. Demokratik uslub** - bu uslubda ishlovchi o'qituvchilar o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatda ularning yosh psixik xususiyatlarini yaxshi bilishlari bilan ajralib turadi. Ularning fikriga ko'ra ta'limda o'quvchi shaxsini shakllantirish orqali bilim berish juda muhim. Bunday o'qituvchilar bolalarga nisbatanrox u intizomli, hox u intizomsiz, hox tez, hox bo'ladilar. Ularning fikricha bola sekin o'zlashtirgani yoki qaysarlik qilgani uchun to'laligicha aybdor emas. O'qituvchi bunday bolalar muvaffaqiyatiga ishonadi va o'quvchilarni ham ishontira oladi. Dars davomida o'quvchilar o'z-o'zini boshqaruviga ko'proq imkoniyat yaratadi va turli usullar orqali o'quvchilarnig mustaqil fikrlashlarini va mustaqil o'qish o'rganishlarini rivojlantirishga harakat qiladi. Demokratik uslubda ishlovchi o'qituvchi o'tiladigan dars rejasini o'zi hohlagancha tuzadi deb aytish qiyin, chunki ular uchun tasdiqlangan o'quv rejasidan tashqari o'quvchiarning qiziq, ehtiyoj va layoqatlari muhimdir.

Demokratik uslubda o'qituvchi jamoa fikri asosida ishlaydi. O'qituvchi faoliyat maqsadni har bir o'quvchi ongiga singdirishga intiladi, muhokamada barcha o'quvchilarni ishtirok etishlarini ta'minlaydi. O'z vazifasini faqat nazorat va tuzatishlar kiritishdan emas, balki tarbiyalashdan iborat, deb tushinadi. Har bir o'quvchi taqdirlanadi, unda o'ziga ishonch xislari tug'iladi. O'z-o'zini boshqarish rivojlanadi. Demokratik o'qituvchi har bir o'quvchining qiziqish va qobiliyatlarini

hisobga olgan holda ish taqsimlashga harakat qiladi, faol o'quvchilarni taqdirlab boradi. Tashabbusga keng yo'l ochib beradi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga asosan maslahat, iltimos bilan muloqot o'rnatadi.

**3. Liberal (kelishuvli) uslub** - o'quvchilarni bebosh, tarbiyasiz, yalqovlikka olib boruvchi uslubdir. O'qituvchi o'quvchilar hayoti bilan qiziqmaydi, unga aralashmaydi, jonbozlik ko'rsatmaydi, masalalarni hal qilishga e'tiborsizlik bilan qaraydi. Bir - biriga qarama - qarshi fikrlarni ham ma`qulayveradi. Bunday o'qituvchiga ishonmaydilar hurmat qilmaydilar.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari va yuqorida aytilgan fikrlarga ko'ra o'quvchilar bilan munosabatda faqat demokratik uslubni qo'lovchi o'qituvchilarning o'quvchilarida bugungi davrimiz va kelajak talab qilayotgan xususiyatlar shakllanishi mumkin.

Shunday qilib, pedagogik muloqotni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- ✓ O'zaro ijodiy faoliyatga qiziqtirishga asoslangan muloqot;
- ✓ O'zaro do'stlilikka asoslangan muloqot;
- ✓ Muloqot - masofa;
- ✓ Muloqot - qo'rqtish;
- ✓ Muloqot - xazil- mutoyiba;

Mulqot madaniyati boshqalarni tushunishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatni shakllantirish, o'z - o'zini tushunishga ehtiyoj tug'dirishdir.

Muloqotdagi asosiy kamchiliklar:

- ✓ Ehtiyojsizlik, shaxsiyatparastlik, suhbatdoshini ortiqcha majburlash;
- ✓ Passivlik, o'zini yuqori qo'yish;
- ✓ Xaddan tashqari jonbozlik ko'rsatish.

Jismoniy rivojlanish shaxsning ijtimoiy maqomi, moddiy ta'minot darajasi muloqot psixologiyasi ta'sir ko'rsatadi.

(Buni o'ylab ko'ring, munozara, bahs uchun mavzu bu).

## O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.

**Reja:**

1. O'qituvchi faoliyatini tashkil etish
2. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati
3. Muloqot psixologiyasi

Muloqot shaslararo munosabatlarning shunday ko'rinishidirki, uning yordamida insonlarning bir-birlari bilan o'zaro munosabatga kirishadilar. O'zaro axborot almashinadilar bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar.

Shu sababli muloqot ijtimoiy-psixologikhodisa sifatida turmushning barcha sohalarida ishtirok etib, xamkorlik faoliyatining moddiy manaviy emoqional qirralarining ehtiyoji sharoitida yuzaga keladi.

Pedagogik muloqot-pedagogik ta'sirning ajralmas sifati bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning ta`lim tarbiya jarayonidagi professional muloqot bo'lib, unda ma'lumot almashinadi va o'qituvchilarga o'qu-tarbiyaviy ta'sir o'tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishi lozim. Uning asosida esa o'zaro xurmat va ishonch yotadi. Pedagog o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan xurmat va ishonchni talab etadilar. Bu pedagogik ta'sirsamarali yo'li bo'lib, tajribali pelagogo'quvchini o'z-o'zini xurmatlashga asoslangan xolda munosabatlarni tashkil etadilar va shuorqli munosabatlarni amalga oshiradilar.

Muloqotning o'ziga xos 3 ta darajalari farqlanadi. Bular:

1. Makro daraja (katta) - insonlar bilan muloqot qilish archa axloq-odob me`yorlariga suyangan xolda amalga oshiriladi.
2. Mezo darajada (o'rta) - muloqot ta`lim mavzu asosida kechadi (masalan,??? Mavzudan chekinmaslik)
3. Mikro daraja (kichik) - muloqotning oddiy shakllari, savol-javob tarzida yuz beradi.

Muloqotning ko'yidagi turlari mavjud: shaxslararo (inson-inson), shaxsiy-guruxiy (gurux-gurux), ommaviy kommunikatsiya (radio, televidenie, ro'znama, jurnallar). (Davletshin.M.S. Umumiy psixologiya T.2002 yil. 62 bet).

Pedagogik muloqotda ijodiylilik quyidagilarga bog'liq:

- o'quvchilar bilan o'zaro birgalikda harakat qilish;
- o'quvchiga ta'sir qilishda uning xulq-atvorini boshqarish, o'zaro harakatning turli yo'llarini qo'llash;
- o'qituvchining o'z-o'zini boshqara olishi;
- O'zaro munosabatlar jarayonidagi ijodiylilik harakatini saqlay bilish.

Demak, o'qituchilar bilan

**Nazorat uchun savollar:**

1. Pedagogik muloqot tushunchasini izohlang?
2. Muloqot funktsiyalari nimalardan iborat?
3. Professional pedagogik muloqot tarkibi qanday?
4. Pedagogik rahbarlik uslublarnini sanab bering?

5. Muloqot etikasi va madaniyati nimalarda ko'rindi?
6. Pedagogik muloqotdagi asosiy kamchiliklar qaysilar?

## **PEDAGOGIK TAKT VA PEDAGOGIK ETIKA.**

### **REJA:**

1. "Pedagogik takt" va "pedagogik etika" tushunchalarining mohiyati.
2. Pedagogik takt negizida aks etuvchi sifatlar.
3. Nazokat va taktika.
4. O'qituvchining muloqot odobi.
5. O'qituvchi odobi va etikasini shakllantirish yo'llari.

### **Tayanch iboralar:**

Pedagogik takt, taktika, pedagogik nazokat va odob-ahloq, pedagogik nazokat me`yori, yoqtirish, yoqtirmaslik, psixologik muhit, o'qituvchi etikasini shakllantirish.

Oldingi mavzuda aytilganidek, o'qituvchi va o'quvchining muloqot jarayoni o'quvchilarda ikki xil hissiyot tug'dirishi mumkin, faqat ijobjiy hissiyotlangan muloqotgina haqiqiy tarbiyaviy harakterga ega bo'lisi mumkin. Salbiy hissiyotlar esa, ta'sir ko'rsatishning oqibat natijasi sifatida emas, balki ijobjiy hissiy samaraga erishish yo'lidagi xususiy hol sifatida sodir bo'lisi mumkin (masalan, obro'sizlanishdan qo'rqish). Tajribalarning ko'rsatishicha, o'qituvchida aynan pedagogik takt bo'lidanidagina o'quvchilar ijobjiy hissiyotli muloqot va psixologik bog'lanish o'rnatishi mumkin. Pedagogik takt talablariga amal qilgan o'qituvchilarga o'zida demokratik muloqot uslubini shakllantirishi, o'quvchilar bilan haqiqiy muloqot madaniyatiga erishishi mumkin. Takt so'zini aynan ma'nosи tegib turish, daxldor bo'lish demakdir. U odamlar o'rtasidagi munosabatlarini saqlab turuvchi ahloqiy toifadir. Insoniylik prinsipiga asoslangan holda taktli ahloq-eng murakkab holatlarda ham inson hurmatini oqlashni talab etadi.

**Taktli (odobli)** bo'lish-har bir inson, ayniqsa kamol topayotgan yoshlar bilan ishlaydigan pedagoglar uchun muhim ahloqiy talabdir. Pedagogik takt o'quvchining professional sifati, pedagogik mahoratining muhim qismidir. Pedagogik takting o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u faqat o'qituvchi shaxsi xususiyatini (xushmuomalalik, o'quvchini sevish, hurmat qilish) anglash, balki o'quvchi ko'ngliga to'g'ri yo'l topa olishini ham bildiradi.

**Pedagogik takt** – bu o'quvchining o'quvchiga ta'sir etishi pedagogik jihatdan muvofiqlik o'lchovi, eng samarali muloqot uslub o'rnatishiga bog'liqdir. Pedagogik takt o'quvchilar bilan muloqotda haddan oshib ketishga yo'l qo'ymaydi. O'quvchilik faoliyatini xarakterlab K.D.Ushinskiy shunday deganedi: «Maktabda hazilga yo'l qo'yuvchi, lekin hamma ishni hazilga aylantirmaydigan-jiddiylik, faqat taltaytirmaydigan erkalatish, injiqsizlik-haqgo'ylik, loqaydsizlik-xushmuomala, rasmiyatchiliksiz-

tartib, eng muhimi doimo oqilona faoliyatda bo'lishi kerak». Bunday ta'sir ko'rsatish me'yori tarbiyaviy vositalardan foydalanishda ham namoyon bo'ladi. Tibbiyotdagi dorilar kabi o'qituvchining so'zi va metodi ham aniq o'lchovga, foydalanish rejimiga ega bo'lishi kerak. U yuqori samarali, zo'ravonliksiz va olivjanoblik bilan qo'llashi zarur. O'qituvchini o'kuvchilar timsolida barcha bolalarni hurmat qiluvchi shaxsni ifodalashi zarur. Hurmatni anglagan o'quvchida o'z shaxsi qimmatini sezish hislari vujudga keladi, pedagogik ta'sirga berilmayotgan qaysarlarni moyillashtiradi-ularni tarbiyaviy jarayon katnashchilariga aylantiradi. Hurmat qilish, ko'ngilni yaqin tutib, erkalatish talabchanlikni inkor etmaydi, balki aynan uni nazarda tutadi. Bu o'rinda A.S.Makarenkoning: «Insonni iloji boricha ko'prok hurmat qilish va undan qattiqroq talab qilish prinsipiga amal qilish zarur. Bizning jamiyatda hurmat va talabchanlik o'zaro organik holatda amalga oshiriladi».

O'qituvchining pedagogik taktga ega ekanligi, uning yurish-turishida, vazminligida, o'zini tuta-bilishidtja namoyon bo'ladi va o'quvchiga ishonch bilan qarashni nazarda tutadi. O'quvchiga ishoichsizlik bilan qarash va buni har doim unga eslatish o'qituvchining pedagogik taktga ega emasligini bildiradi. O'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi ziddiyatlarni tahlil qilish, uning asosiy sabablaridan biri o'qituvchining pedagogik nazokat ga ega emasligi, deb topilgan. O'kuvchining tashqi ko'rinishi, aqli, qobiliyatlarini qo'pol tankid qilish, ular ustidan kulish, o'kituvchini xech qanday taktga ega emasligini belgilaridir. «Namuncha pittillaysan, tagingda mix bormi?» - degan tanbehni ayrim o'qituvchilar odatdagidek ishlatsizadi. G'azablangan o'qituvchi butun sinfga ayrim o'quvchi hakida, uni ko'chada uchratganda, kim bilan qanday yurganligini e'lon qiladi. Ko'p hollarda aynan shundan ziddiyatchilik boshlanadi.

Pedagogik taktni amalga oshirish shartlari pedagogik takt darsning hamma bosqichlarida o'qituvchi uchun zarurdir. Ayniqsa, o'quvchilar bilimini baholashda juda e'tiborli bo'lishi kerak. Bu takt - o'quvchi javobini to'la eshitishda, ya'ni javob shakli va mazmuniga diqkat bilan e'tibor berishda, o'quvchi adashganda vazminlik bilan tuzatishda, bahoni haqqoniy qo'yish va uni izohlab berishdir. Albatga «Sen hech narsani bilmaysan!», «O'tir!», «Har doimdagidek o'qimay kelibsan!» - degan achchiq e'tirozlar o'rinsizdir.

Mohir o'qituvchilar hatto duduqlanib javob berayotgan o'quvchini kamchiligini to'g'rilib boradilar. Taktsiz o'qituvchida esa, hatto qobiliyatli bola ham duduqlanib javob berolmasligi aniqlangan.

Barcha o'quvchilar, ularni diqqat va hurmat bilan tinglaydigan, javobni to'g'rilib, yo'llab turadigan o'qituvchiga javob berishni yoktiradilar. Javob berayotgan o'quvchiga jilmayish, imo-ishora, bosh qimirlatish bilan ma'qullab turish juda ahamiyatlidir.

Ayniqsa, baho qo'yish payti nihoyatda mas'uliyatlidir. Bahoning psixologik ta'siri haqida B.G.Ananev noto'g'ri qo'yilgan bahoning o'quvchiga salbiy ta'siri uch oygacha sezilib turishini aniqlagan. O'quvchilar faoliyatini baholashda V.A.Suxomlinskiy tajribasidan foydalanish juda e'tiborlidir. Uning baholash tizimi

asosan quyidagi ikki pedagogik asosda yaratilgan.

1. Bolaga funktional yondoshish emas, balki unga shaxs nuqtai nazaridan yondoshish (o'quvchi bo'lgandan keyin o'qib kelish kerakda, deb qarash noto'g'ri). «Mening o'quvchilarim, eng avvalo inson, bola, so'ngra esa o'quvchidir. Men unga qo'yadigan baho uning bilimlari o'lchovi emas, balki mening unga nisbatan insoniy munosabatimdir.
2. Baho o'quvchini kelajakka ishonch ruxida tarbiyalashi zarur. O'quvchi mehnatini rag'batlantirishi, lekin uning dangasaligi va qobiliyat-sizligi uchun jazolash vositasi bo'lmasligi zarur.

Darsdan tashqari holatda taktni qullash jaraenida xam uqituvchi ma'lum qoidalarga rioya qilmog'i zarur. Pedagogda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish. Pedagogik takt -o'qituvchi xulqining ixcham bo'lishini, ya'ni taktikasini ham nazarda tutadi. Chunki o'qituvchi o'quvchilar bilan turli rollarda muloqot qiladi. Darsda aniqlik, uddaburonlik, qat'iylik, agar darsga tayyor bo'lmasa soxta muloqot va hokazo. Darsdan tashqari ishlarda erkinlik, ko'ngilchanlik, bemalollik-bular ayniqsa individual suhbatda, poxod (yurish) larda, sayohatlarda muhimdir. O'yin, kechki dam olish va gulxan atrofidagi o'tirishlarda esa o'rtoqlarga munosabat va ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shuning uchun ham muloqotning turli shakllari: yig'ilish, munozara, bo'sh vaqt ni o'tkazish, o'qituvchidan muloqotning o'ziga xos uslubidan foydalanishni, uning ohangdorligini o'zgartirib turishni taqozo kiladi.

Muloqotda taktikani tanlash rollar nozitsiyasidan foydalanish bilan bog'lidir. A.V.Dobrovich rollar pozitsiyasi uch xil bo'lishini isbotlagan.

1. «Yuqorida kelish pozitsiyasi» - o'qituvchi o'zining to'la mustaqilligi javobgarlikni o'z zimmasiga olishini namoyon qiladi. Bu pozitsiya ota-onha pozitsiyasi deb ataladi.

2. «Pastdan kelish pozitsiyasi» - o'qituvchi o'z shaxsini mustaqil emas, balki bo'ysunuvchi va o'ziga ishonmaydigan qilib ko'rsatadi. Bu bolalar pozitsiyasi deb ataladi va o'quvchi mustaqilligini oshirish maqsadida ishlatiladi (doskada o'qituvchi ataylab xatoga yo'l qo'yadi).

3. «Yonma-yon turish» - o'qituvchi xushmuomalaligida va vazminligida, vaziyatga qarab ishlashni bilishida, boshqalar holatini tushunishida va javobgarlikni o'zi va boshqalarga taqsimlashida ifodalanadi. Bu «kattalar» pozitsiyasi deb ataladi (V.A.Kan-Kalik ).

O'qituvchining to'g'ri muloqot uslubini tanlashi, har qanday sharoitda pedagogik taktga amal qilishi, takomillashgan kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lishini talab kiladi. A.N.Leontev kommunikativ malakalarga quyidagicha xarakteristika beradi:

- ijtimoiy persepsiya yoki (yuzidan uqib olish) malakasini egallash;
- o'quvchining tashqi belgilariga xos ravishda uning shaxsi, psixik holati va boshqa xususisiyatlarini modellash; o'quvchilar bilan muloqot paytida vazmin bo'lishi;
- nutqni psihologik nuqtai nazaridan eng maqsadga muvofiq qilib tuzish, ya'ni nutq muloqotining o'quvchilar bilan nutqli va nutqsiz muloqot qilishni bilish .

Muloqotda rollar pozitsiyasidan unumli foydalanishga L.S.Makarenkoiing ko'cha bezori (oprishka) ni kollektordan koloniyaga olib kelishidagi mahoratini misol keltirish mumkin.

Uni kollektordan koloniyaga borishga hech kim ko'ndira olmadi, o'zim borishga majbur bo'ldim. Men u krovatda yotgan holda e'tiborsiz nazar tashlab kutib oldi.:

- Hammangni jin ursin! Men hech qayoqqa bormayman! Menga uning qahramonlarcha g'ururi ma'lum edi. Shuning uchun ham muloyimlik bilan so'z boshladim:
- Hurmatli janob, Sizni bezovta qilish men uchun ham noqulay, lekin men o'z xizmat burchimni bajarishga majburman. Shuning uchun ham o'rningizdan turib, siz uchun mo'ljallangan ekipajdan joy olishingizni iltimos qilaman.

Meni bunday «ajoyib» muomalamdan Oprishko dastlab hayratlandi, hatto krovatdan biroz ko'tarildi, Lekin uning o'jarligi ustun keldi va o'zini yostiqqa otdi:

Bormayman dedimmi-bormayman! Yo'qol!

U holda, hurmatli janob, ma'lumingiz bo'lsinki, men sizga nisbatan kuch ishlatishga majbur bo'laman!

Buni qarang-a! Sen qayerdan kelib qolding? Meni kuch bilan ko'ndirish oson deb o'layapsanmi?!

Har qalay e'tiborga olib qo'ying Men tovushimni baland ko'tarib, istehzo bilan:

... Hurmatli Oprishko... va birdaniga unga baqirdim:

- Tur o'rningdan! Nega cho'zilib yotibsan. Tezda tayyorlan! Senga tur deyapman!!! U o'rnidan turdi va deraza tomon otildi.

- Xudo ursin, hozir o'zimii derazadan tashlayman!!!

Men unga xavotir bilan qarab shunday dedim:

- Yo zudlik bilan derazadan tashla yoki aravaga chiq! Sen bilan adi-badi aytishgani vaqtim yo'q!

Biz uchinchi qavatda edik, shuning uchun Oprishko sho'h va quvnoq kulib yubordi:

- Muncha yopishib qolding! ... nima derdim? Siz Gor'kiy koloniyasini mudirimisiz?

- Ha

- Shunday demaysizmi! Allaqachon jo'nab ketgan bo'lar edim

MV Ushbu pedagogik vaziyatni tahlil qilib, qachon «ota-on», «bolalar» va «yonma-yon turish» pozitsiyasidan foydalanilganligini aniqlang.

### Nazorat savollari:

1. Pedagogik takt va odob-ahloq tushunchasini izohlang?
2. Pedagogik takt me`yori deganda nimalar e'tiborga olinadi?
3. Takt va taktikaning o'ziga xosligini tushuntirib bering?
4. Psixologik muhit qanday yaratiladi?
5. Darsdan tashqari vaqtarda o'qituvchi takti va odobiga qanday talab qo'yiladi?

- O'qituvchi takti va odobini shakllantirish yo'llari va shart-sharoitlarini izohlang?

## **PEDAGOGIK TEXNIKA.**

### **R E J A :**

- “Pedagogik texnika” haqida tushuncha.
- Pedagogik texnika vositalari.
- Pedagogik texnikaning vositalari.
- O'qituvchining o'z ruhiy holatini boshqarfa olish texnikasi.
- Psixotexnikaning ilmiy asoslari.
- Aktyorlik psixotexnikasining amaliy usullari.

### **Tayanch iboralar:**

Pedagogik tehnika, pedagogik tehdkananing tarkibiy qismlari, mimika, pantomimika, pedagogning tashqi ko'rinishi, , pedagogik t'ehnika ko'nikmalari, , pedagogik teknikani egallash yo'llari, aktyorlik va rejissyorlik faoliyati, K.S.Stanistavskiy tizimi, pedagogning aktyorlik talanti, emotsional holatlarni yuzaga keltirish, jismoniy va psixopedagogik treninglar.

Pedagogika texnika o'qituvchilariga o'quv faoliyatida ham, o'qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo'lgan umumiy pedogik malakalar majmuidan tashkil topgan.

Avvalo pedagogik texnikaning tarkibiy **qismi sifatida o'qituvchining nutq malakalarini**, ya'ni savodli gapirish, o'z nutqini chiroli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon etish, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalarini aytib o'tish mumkin.

Pedagogik texnikaning boshqa **tarkibiy qismi pedagogning mimik va patnomimik ifodalivligidir.** Aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta'sir ko'rsatishda ko'p so'zni tushuntirish yoki e'tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muamoli vositalari bo'ladi.

Pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishda **o'qituvchining o'z hissiy** (psixik) **holatini boshqarish**, o'zida eng qulay hissiy (ijodiy) jiddiylik darajasini va umidbaxshlik, xayrioxlik kafiyatini saqlash, o'zining hissiy dam olishini tashkil etish mahorati muhim rol' o'ynaydi. Bu mahorat pedagogikaning kasbiy jihatdan o'z-o'zini nazorat qilishlarini ta'minlaydi, ko'p yillar davomida sog'lom asab tizimini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zo'riqishdan o'zini tiyish yordam b'eradi.

Pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishni tashkil etish uchun o'qituvchi aktiyorlik va rejissyorlik mahorati tarkibiy qisimlarini egallashi zarur, ularni o'qituvchiga bolalar bilan msuomala qilishda tarbiyalanuvchilarning aql-idrokigagina esam, balki ularning his-tuyg'ularniga ham ta'sir ko'rsatish ularga olamga bo'lgan hissiy-qadriyatli munosabatda bo'lih tajribasini ancha to'liq bera bilishigi yorpdamlashish.

Pedagogik texnika shunday yig'indiki, u o'qituvchining eng yaxshi ijodiy xulq atvorigi boshqacha aytganda, har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchiga samarali ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Pedagogik texnika malakalarning muhim xususiyatlari qo'yidagilardan iborat:

Pedagogik texnikaning aniq ifodalangan individual shaxsiy tasda bo'lismi, ya`ni pedadgogning individual psixik-fiziologik xususiyatlari asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika pedagigning yoshi, jinsi, mijozasi, fe'l-atvori, sihat-salomatligi, anatomik-fiziologik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Nutqning ifodali, sof bo'lishi ustida ishslash fikrlarining ravon bo'lishiga ta'sir qiladi. Nutq imo-ishora, mimika, harakat bilan birga sodir bo'ladi, uzlusiz o'zini tuta bilish ta'sirchan vositalarini tanlashga, muvaffaqiyatli ravishda tuzatish kiritib borish imkonini beradi.

Pe'dagogik ta'sir ko'rsatishda yuqoridagi malakalar orqali pedagogning ma`naviy va estetik nuqtai-nazarlari tarbiyalanuvchilarga yanada to'laroq ochib beriladi.

Pedagogik texnika malakalarining shakillanish darajasi ma'lum darajada pedagogning umumiy ma'daniyat darajasini, ya`ni shaxsning pedagog imkoniyatlarni aks etadi.

Pedagogik texnika 2 turdag'i ko'nikmalar guruhidan iborat:

1. O'zining-o'zi (gavdasi, hissiy holati va nutq texnikasi) boshqara olishi;
2. Pedagogik vazifalarni hal etishda o'quvchilar bilan hamkorlikda ilashni uddalash (didaktik, tashkilotchilik malakalari, bevosita ta'sir etish texnikasi).

Pedagogik texnika qo'yidagi ikki gurux yig'indisidan iborat:

- I. Pedagogning o'z xulqini boshqaqara olishi:
  - a) O'z-o'zini boshqara olish, mimika va taktikalari;
  - b) Hissiyoti, ruhiy holatini boshqara olishi, ijobiy vaziyatni vujudga keltirish;
  - c) Mantiqiy fikr tuzish, qobiliyati, diqqati, o'qib olish, sezgirlik, o'zini qo'lga olishlikni egallash;
  - d) Nutq texnikasi, nafas olishi, ovozni tinglovchilarga moslashishi. Talaffuz tarzi, nutq sur'ati.

Pedagogik jarayon shaxs va jamoatga ta'sir ko'rsatish bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayoning texnologiyasini ochib beradi. Unga pedagogikning didaktik, tashkilotchilik, kostruktivlik, komunnativ ko'nikmalar, qo'yidagi talablarning texnologig usullari, pedagogik muloqotni boshqarish, jamoaning ijodiy ishlarni tashkil etish va boshqarish kiradi.

Yosh o'qituvchilarning pedagogik texnikasida qo'yidagi juz'iy kamchiliklar uchraydi:

- o'quvchi yoki uning ota-onasi bilan sidqidildan so'zlasha olmaslik;
- g'azabning to'xtata olmaslik yoki uni o'z o'rnila ishlata olmaslik;
- o'zida ishonchszilik enga olmaslik;
- nutqining ravon emasligi;
- ortiqcha qattiqqo'lllik;
- xushmuomala bo'lishdan qo'rqlash;

- juda tez gapirish (ayniqsa, darsda)
- ortiqcha harakat yoki bir joyda qotib qolish, qo'llarni qaerga qo'yishini bilmaslik;
- o'z gavdasini tutishdagi kamchilik (bukchayib, erga qarab yurish, befoyda kulish, ortiqcha harakat), turli jismlarni qo'lida aylantirib yurish.
- Tovushdagagi kamchiliklar: bir ohangli, zerikarli aniq talaffuzning yo'qligi, xona uchun ziarat tovush balandligini tanlay bilmaslik.
- Nutqdagi kamchiliklar: nutqning hayotiy emasligi ifodali o'qish malakasi (diktsiya) ning yo'qligi.

Yuqoridagi kamchiliklar o'qituvchi uchun o'quvchilarga samarali ta'sir etishiga xalaqit beradi. Kamchiliklarga talabalik davrida barham berish, bo'lajak pedagoglar uchun juda ahamiyatlidir.

Pedagogning tashqi ko'rinishi estetik jixatdan mukammal bo'lishi kerak. O'qituvchilarning tashqi qiyoqasi ham uning obro'yining tarkib topishga ta'sir etadi. O'qituvchining saramjon-sarishtaligi, ozodaligi, yaxshi odatlari, chiroyli qaddi-qomati va yurish-turmushlari o'qituvchilarda juda yaxshi ta'surot qoldiradi.

O'qituvchi pedagog qo'yidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak:

- a) ortiqcha badqavoq bo'lmaslik;
- b) boshqalar nuqsonlarini oshirib ko'rsatmaslik;
- v) hazil mutoyibaga moyil bo'lish;
- g) xush muomala bo'lish va kelajakka ishonch bilan qarash;

Bunday sifatlarni egallash shartlari qo'yidagicha:

O'z kasbini jamiyatdagagi o'rnini ongli ravishda tushunish, burch sezgisini ustunligi, pedagog ziyraklik, hissiy sezuvchanlik, hamda o'zini-o'zi tahlil qilish va to'g'ri baxolash.

Darsga tayyorgarlik ko'rayotgan va o'zida ishonchsizlik, qo'rqinch sezayotgan yosh o'qituvchi jismoniy va ruhiy erkinlikka erishish maqsadida qo'yidagicha relaktsiya seansini (treningni) o'tkazishlari tavsiya etiladi.

«Men tinchman, men ishonch bilan dars beryapman, bolalar meni tinglashmoqdalar. Darsda o'zimni bemalol his etyapman. Men darsga puxta tayyorlanganman. Dars qiziqarli, uni yaxshi tugataman. Men o'zimni boshqara olaman. Kayfiyatim juda yaxshi. O'quvchilar meni hurmat qiladilar, talablarimni bajaradilar. Darsdagi mehnat menga yoqadi. Men o'qituvchiman».

Pantomima-bu gavda, qo'l va oyoqlarning harakatidir. U asosiy firkni ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Yaqqol qiyofalarni gavdalantiradi. O'qituvchi darsda o'quvchilar oldida to'g'ri turish holatini mashq qilish kerak (oyoqlar oralig'i 12-15 sm, o'ng oyoq biroz oldinda) barcha harakatlar o'zining oddiyligi va nafisligi bilan o'qituvchilar e'tiborini tortish lozim.

Gavda tutish estetikasi: oldinga-orqaga tebranish, og'rlikni bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa o'tkazim turish, stul suyanchig'iga tayanib turish, boshni qashlash, burunni artish, quloq kavlash kabi zararli odatlarga yo'l qo'ymaydi. O'qituvchi gavdasining harakati chegarali va bosiq bo'lishi ortiqcha silkinishi va keskin harakatlardan holi bo'lishi shart.

Mimika - yuz muskullari orqali o'z sezgisi, fikri, kayfiyatini ifodalashdir. O'qituvchining yuz ifodasi va qarashi ba'zan o'qituvchilaga so'zdan ham qattiqroq ta'sir ko'rsatadi. Mimika axborotning xususiy ahamiyatini oshiradi, uni puxtarop o'zlashtirishini ta'minlaydi. O'quvchilar o'qituvchi kayfiyati va munosabatini uning yuzidan uqib turadilar. Shuning uchun ham o'qituvchining yuzi uni sezgirligini ifodalash bilan birga ularni yashirib turishi ham muhimdir. Oila tashvishlari, tashqaridagi kelishmovchiliklarni o'qituvchi o'zining yuz ifodasida bildirmasligi kerak. Piyoda yurish, dam olish, kitob o'qish bilan ruhiy zo'riqishlar bartaraf etiladi.

Yuz ifodasi va harakatlar faqat dars maqsadiga, o'quv tarbiyaviy ishni yaxshilashga yo'naltirishi lozim.

Yuz ifodasida ko'zlar muhim o'rinni tutadi. Jozibasiz ko'zlar ma'nosiz qalbni aks ettiradi.

O'qituvchi yuz muskullari va ko'zlarni tez-tez harakatlantirishdan shu bilan birga ularni birday qotib qolishidan ehtiyoj bo'lismi lozim zarur. O'qituvchi nigohi o'quvchilarga qaratilgan bo'lishi, bevosita ko'rish kontaktini vujudga keltirish zarur, barcha o'quvchilarni diqqat markazida ushlab turishga intilish lozim.

Tarbiyaviy jarayon ijodkorlikdan iboratdir, lekin u pedagogik vaziyatni tahlil qilish maxoratida ham, bolalar bilan bevosita o'zaro xamkorlik qilishda ham namoyon bo'ladi. Tarbiyachi ijodkorligining o'ziga xosligi shundan iboratki, u ijodiy fikrini o'z shaxsi orqali amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogikada ijodkorning shaxsi bilan ijodkorlik quroli (vositasi) bir-biriga mos keladi bunda tarbiyachining o'z-o'zini namoyon qilishi juda katta rol' o'ynaydi. Bu jihatdan o'qituvchining faoliyati bir qator xususiyatlari bo'yicha aktyor, rejissyorning badiiy-ijodiy faoliyatiga yaqindir.

Shuni qayd etib o'tish kerakki, teatr ijodkorligida va pedagogik ta'sir ko'rsatishda, ya'ni pedagog bilan bolalarning bevosita o'zaro harakati bilan bog'liq bo'lgan xissi o'zaro fikr almashish sohasida ko'pgina umumiyligi tomonlar bor. Tarbiyachi pirovard natijada pedagogik ta'sir ko'rsatish drammaturgiyasini ishlab chiqadi, uni rivojlantirish soxalarni belgilaydi, tarbiyaviy ta'sirlar rejasini tuzib chiqadi, bu reja u yoki bu tarbiyaviy syujetni rejissyorona ko'rishni nazarda tutadi, nihoyat. pedagogning o'zi tarbiyaviy g'oyalar va yo'l-yo'riqlarning - faol «uzatuvchisi» bo'lib maydonga chiqadi, Bu ikkala ijodiy jarayonni muomala va o'zaro faqat bir-biriga yaqinlashtiradi, Ular ham teatr ijodkorligi ham, pedagogik ijodkorlikning eng muxim harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Shu bilan birga kishi shuni aniq bilishi kerakki, bu faoliyat turlaridagi o'xshash qismlar uchun o'ziga xos qismlar sifatida namoyon bo'ladi, bunga sabab avvalo shuki, bu ijodiy jarayonlarning o'zi, tuzilishi va vazifalariga ko'ra aynan o'xshashdir. Gap teatr ijodkorligi nazariyasidan, xususan K.S.Stanislavskiy sistemasidan pedagogik ta'sir ko'rsatish maxoratini oshirishda foydalanish imkoniyatlari xaqida bormoqda. Masalan, jarayoniing xissii soxasini tahlil qilish borasida teatr pedagogikasi tomonidan to'plangan bir muncha tajriba asosida o'zaro fikr almashish amalga oshiriladi va bu tajriba pedagogning ijodiy mehnatiga o'xshash jarayonlarni tutshunish foydalidir, bu esa tarbiyaviy mahoratni samarali egallashga yordam beradi.

Teatr faoliyati va pedagogik faoliyati maqsadning o'xshashligi xam yaqinlashtiradi. Xar ikkala holatda ham maqsad kishiga ta'sir ko'rsatishi va kishida muayyan kechinmalar vujudga keltirish sifatida belgilanishi mumkin. Teatr va pedagogik faoliyat bir xilda ekanliginish uchinchi ko'rsatkichi-ta'sir ko'rsatish qurolining umumiyligidir. Har ikkala xolda ham pedagog bilan aktyorning o'z psixofizik tabiatini shunday qurol vazifasini bajaradi.

Pedagogik faoliyatda pedagogik yunalish xosil qiladigan va bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan kobiliyatlarning alovida bir tarkibi vujudga keladi. Bu jihatdan A.S.Makarenkoning gavdasi shaxsi diqqatga sazovordir. Bu shaxs o'zida pedagogik, adabiy, aktyorlik musiqiy va tasviriyligini qobiliyatlarning o'zaro ta'sirini gavdalantiradi. Mazkur qobiliyatlar umuman Makarenko shaxsning pedagogik yo'nalishi oqimida amalga oshiriladi. Anyun Semenovichning beqiyos qobiliyata egaligini ko'p kishilar ko'rsatib o'tadilar, xususan, uni ovozni, ifodali, imoshorani egallash maxoratini, o'zini idora kilish maxoratini ta'kidlaydilar.

Teatr faoliyati bilan pedagogik faoliyatning o'zaro aloqalariga doir masalalar A.S.Makarenkoning o'zini xamisha qiziqtirib kelgan. Bular haqida pedagogning mashhur fikr-mulohazalari bo'yicha ham, kamroq mashxur bo'lgan memoar materiallar bo'yicha ham xulosa chiqarish mumkii. Masalan, o'z vaqtida Xar'kov rus drama teatrning bosh rejisseyori bo'lgan va A.S.Makarenkoning do'sti N.V.Petrov uning xaqidagi ko'pgina esdaliklarida, bizning suxbatlarimizda teatr va pedagogik muammolar doimo birlashib ketardi, deb ta'kidlaydi.

A.S.Makarenkoning badiiy-teatr ziyolilari bilan yaqindan tanishuvi uning pedagogik faoliyatning xissiy-ijodiy tabiatini mohiyatini tushunib etishga ham tegishli ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emasdir. Shunisi diqkatga sazovorki, Makarenko boshlovchi pedagoglar bilan etyud ishlari olib borish zarurligi xaqida gapirgan va bunday ishni o'z kommunasida o'tkazgan edi. Makarenkoning etyud o'tkazish amaliyotlarini taxlil qilib, K.S.Stanislavskiyning teatr maktabi ta'sirini beixtiyor xis qilasiz. Ikki buyuk pedagog ijodkorning ijodiy tabiatini rivojlantirishni o'z maqsadlari deb bildilar, shuning uchun ham rejissyor N.V.Petrov o'z vaqtida K.S.Stanislavskiy bilan A.S.Makarenkoning pedagogik kontseptsiyalarini taqqoslab ko'rsatgan edi.

Ayni vaqtida shuni ta'kidlash zarurki, A.S.Makarenko aktyorlik va pedagogik kobiliyatlarining o'zaro singuvchanligini bir necha bor ko'rsatib o'tar ekan, tabiiyki, bu ikki musqaqlil ijodiy jarayoni ayni bir xil narsa demagan, Lekin ijodkorlikni mazkur turlarida ijodkor shaxsiga oid talablarda mavjud bo'lган umumiylilikni payqagan edi. U tarbiyachining pedagogik maxoratini shakllantirish xaqida gapirib va jarayonning xissiy-ijodiy jihatlari axamiyatini ta'kidlab: "Bunda o'quv nimadan iborat edi? Avvalo pedagogning fe'l-atvorini tashkil etishgan, uning xulq- atvorini tarbiyalashdan, keyin esa uning maxsus bilimlari va maxoratini tashkil etshidan iborat ediki, bo'larsiz birortasi tarbiyachi yaxshi tarbiyachi bo'la olmaydi, ishlay olmaydi. Chunki uning ovozi yaxshi yo'lga qo'yilgai emas... Yuz harakatlarini yaxshi egallamagan, uz yuziga zarur ma'nolarni bera olmaydigan yoki uz kayfiyatini ushlab turolmaydigan kishi yashi tarbiyachi bo'lishi mumkin emas... Men shunga aminmanki, kelgusida pedagogika oliy o'quv yurtlarida ovozning yig'lishi ham, gavdaning tutishi xam,

o'z a`zolarini boshqarish ham o'z yuzini egallash ham o'qitiladi-bularsiz men tarbiyachining ishini tasavur kila olmayman"-degan edi.

Shu bilan A.S.Makarenko: men aktyorlik va pedagogik faoliyatni aslo ayni bir xil narsaning shunchaki xar xil ko'rinishlari deb tushunmayman, deb ta'kidlaydi. U aktyor mexnatining o'ziga xosligini, estetik yunalishini chuqur anglab quyidagicha yozadi: "Agar biz teatrga borib yaxshi uynaydigan aktyorlardan zavqlansak, u xolda bu opera bizning estetik zavqimizga aylanadi, bu erda esa tarbiyalanuvchi o'z oldida xuddi shunday tirik jonni, uynamaydigan, balki tarbiyalaydigai insonni ko'rib turadi."

Shunday qilib teatr va pedagogik faoliyat mazmun (o'zaro fikr almashish) va vosita belgilari jihatdan (ijodkorni shaxsi va uning psixofizik tabiatini ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida) bir biriga yaqin bo'lib, bir qator umumiy jarayon xususiyatlarga egadir, bu xususiyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- teatr va pedagogik ijodkorlik jarayoni u bevosita ishtirokida ommaviy so'zga chiqish vaziyatida amalga oshiriladi;

- teatr va pedagogik faoliyat o'ziga xos xususiyatlarga ko'ra o'zi ta'sir ko'rsatadigan ob'ektni ayni vaqtida ijod sub'ektiga, sherik ijodkorga aylantiradi, uning faol ishtirokisiz ijodkorlik ishining o'zi bo'lmaydi;

- ko'pgina faoliyat turlaridan farqi o'larok, aktyorlik va pedagogik ijodkorlik asosida buning uchun ajratilgan muayyan vaqt davomidagi ijodkorlik etadi, u ijodkordan (o'qituvchi, tarbiyachidan) o'z ruhiy xolatini boshqarishda tezkorlikni va ijodiy kayfiyatni ayni daqiqada qo'zg'atishni talab kiladi;

- teatr va pedagogik ijodkorlik natijalari jushqin bo'lib, rivojlanib, o'zgarib boradi, boshqacha qilib aytganda, xamisha jarayondan iborat bo'ladi;

- teatr va pedagogik ijodkorlik jamaoa tusda bo'ladi. Tarbiyaviy jarayon nirovard natijada ikkita yirik bosqichdan:

tarbiyaviy maqsad va uni amalga oshirish jarayonidan tashkil topadi. Shuning uchun birinchi bosqichda xam, ikkinchi bochqichda ham aynan o'qituvchining teatr-ta`sirchanlik kobiliyatları muxim rol o'ynaydi. Xush, bu narsa nimalarda namoyon bo'ladi?

Tarbiyaviy jarayon faoliyatdir, mana shuning uchun ham buni rejalashtirishda kishining o'zaro hamkorligi qonunlari hisobga olinishi lozim. Faoliyatga o'quvchilarni qo'shish yo'lini tutish kerak. Shunday kilib tarbiyaviy ta'sir kursatishni rejalashtirish boskichidayok, pedagogik dramaturgiya amalga oshirilishi mumkin. U pedagogik harakatning o'ziga dialektiklik, jiddiylik bag'ishlashga yordam beradi. Pedagog daryo va har qanday tadbir sistemasida tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni rejalashtirar ekan, uni aniq odamlarga yo'naltiradi. Demak, umuman jamoaga, xususan har bir jamoaga nisbatan bo'lajak pedagogik faolyat uchun zarur tarbiyaviy-syujetli vaziyat yaratadi. Ma'lum ma`noda dars-bu o'ziga xos pedagogik p`esa bo'lib, uyoda o'qituvchi stsenariy muallifi sifatida, munosabatlar dramaturgiyasini barpo etadigan va uni boshkaradigan kishi sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy jarayon har bir qatnashchisining faolyatdag'i o'mini belgilab beradi, aniq ilmiy-pedagogik maqsad asosida vujudga kelgan p`esa qiyin kechishi lozim bulgan yangidan-yangi pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirib turadi.

Shunday qilib pedagogik faolyat-bu tarbiyachining pedagogik jixatdan tan olingan, rejalashtirilgan yoki tayyorgarlik ko'rilgan xatti-harakati bo'lib, u vaziyatni yoki bola shaxsini o'zgartirishga olib keladi. Pedagogik faolyat aniq maqsadga qaratilganligi va ayni vaqtda polvonizm (ko'p ovozligi), vaziyat va tarbiyalanuvchi shaxsining o'hshashligi bilan farq qilishi, jo'shqin, samarali, o'zgarishlar kirishga layoqatli bo'lisci, shaxslararo munosabatlar sistemasiga muvofiq kechishi kerak.

2. Bo'lajak pedagogniig aktyorlik psixotexnikasining amaliy usullarini o'rganish). O'qituvchi faoliyatining tuzulishi bo'lajak pedatogning tashkilotchilik-boshqaruv ko'nikmalari va malakalarsha ma'lum talablar kuyadi, shu munosabat bilan uni aktyorlik va rejissyorlik maxorati tarkibiy qismliriga o'rgatib borish zarurati ortadi.

Harakat, diqqat, organika, mushaklar erkinligi, xayol, muomala, qilish, to'ppa-to'g'ri harakat bo'lar buyuk teatr pedagogi K.S.Stanislavskiy sistemcining asosiy tushunchalari bo'lib ularni bo'lajak o'qituvchi ham o'zlashtirib olishi foydalidir.

S.Stanislavskiy rejessurasining nasixatlaridan biri "ishlab chiqarishga doir harakat har qanday majburiylikni tashabussga aylantirishdir". Bu usul o'kituvchining o'zining jiddiy xissiy faoliyatiga va o'quvchilarga nisbatan jahldorlikdan, asabiylididan, salbiy xissiyotlardan qutqaradi. Biroq ijodiy ruxlanishni jazavadan iborat qo'pol xazil bilan chegaralanuvchi ortiqcha xissiyotga berilishdan farq qilishi kerak, o'qituvchining bunday "yonishi" bekorga ketadi-u o'qtvchilarni yondirmaydi, chunki "tomoshabinning idrok etishi" oshirilgan tanusga va xissiyotlarning "qizishiga" nisbatan teskari mutanosiblik qonuniga egadir. "Ibtidoiy-bebosh narsalarni emas, balki doimo bosiq diplomatik temperamentiga yaqin bo'lgan narsalarni afzal ko'ramiz", - deb yozgan edi teatr pedagogi va rejissyori Yu.Mochalov.

E.Vaxtangovning maslahat berishiga ko'ra, masalan, aktyor bilan rejissyor, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida "ishqiy munosabatlar boshlanishi uchun o'qituvchi darsni eng qizg'in saxnalalardan boshlash kerakligini" bilgani foydalidir. Fazoviy xis bilan bir qatorda vaqtini his qilish-rejissyorning asosiy kasb-kor fazilati bo'lib, u pedagog uchun xam muximdir-Gordon Kreg aytgan teatr rejissurasi shiori o'qituvchiing sinfdagi tejamli va betaraddud xulq-atvorini hammadan yaxshiroq tushuntirish uchun kalit bo'lib hisoblanadi.

Sahnadagi asosiy hodisalardan biri kelish va ketishdir. Mashxur aktyor S.M.Mixaels bunday yozgan edi: "Har bir kelish va ketishda aktyorni "orqadan" itaruvchi sabab, yoxud jozibali, olg'a chorlovchi maqsad bor. Buni his qilish shuning uchun zarurki, aktyorning kelishi va ketishi mantiniy, uygunlashgan bo'lsin va dramaturglar o'z matnida hisobga olmagan yangi xodisalarni belgilab bersin".

Pedagogning sinfda turish holati o'zining alomatlariga ega. Masalan, chap qisim eng. oddiy mizasaxnasiising tili «oldin bulishlik»ni bildiradi, bunda ko'z qarashi guyo harakatni o'ng qismdagi bo'sh makonga "xaydaydi", chunki ko'z shartli-reflektorli fiziologik mexanizmlar tufayli fazona chandan o'ng tomonga qarab "o'qiydi". Undagi kompozitsiya tugallikka intiladi, chunki chap qismdagi

fazo o'ng tomonda joylashgan kompozitsiyani siqib qo'yganday bo'ladi va bu bilan uni axamiyatliroq, salobatlirok qiladi.

Yaqindagi qiyom harakatni yiriklashtiradi, lekin xaddan ziyod tez-tez yiriklashtirish tomoshabinning ko'z oldida bo'lib, idrokni charchatib qo'yadi. O'qituvchi o'zining "darvoza maydonchasi"da xuddi saxnada turganday bo'ladi. Yakin yoki yirok qismdan qandaydir muxim voqealarni ma'lum qilish uchun foydalaiishadi, U axborot uzatishga e'tiborni qaratadi. Ikkinchi kism intim qism bulib, u jamoa yoki oilaviy qism deb ataladi va psixologik farqlarni uzoqlashtiradi. Har holda qolgan qismlar ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi qismlar-xali ancha yuzakidir. chunki ular pedagogning nazaridan, binobarin, undan o'tadigan kechinmalardan uzoqlashgan. o'kituvchi o'zida saxna muvozanati, muvofikligi, bunda o'zini tinglovchilar qanday idrok etayotganligini hisobga olish mumkin.

Pedagogning o'quvchilarga yuzi bilan qarab turishi yoki burilib turishi xam o'ziga xos semantikaga ega. Auditoriyaga idrokning psixofiziologiya konunlari bo'yicha to'g'ri chiziq bo'ylab chiqib ketish (rupara turish) o'quvchilarni sergaklantiradi. chunki kompozitsiya jihatdan o'quvchining qiyofasini, unga kattiylik, ma`nodorlik baxsh etadi. Yarim fas truakarning qimmatli mezasaxna imkoniyatlardan biri bo'lib, bevosita va bilvosita muomala uchun gavdaning to'rtdan uch kismi mikdorida yakkol va kulay rakus beradi ("Truakar" nomi ham shunday olingan). Gavdaning qanday tutishiga (oyoqlarning erkin turishi, gavdaning og'irligi tufayli oyoqlardan biriga kuproq yuk tushishi, murakkab tag ma'nolarni uzatuvchi boshning tuflicha xolatda bo'lishi mumkinligi), "diagonallarning samaradorligi" sinfning ish maydonidagi eng uzun masofaga (u dar-hol ikki o'lchovda kompozitsion o'zgarishni ta'minlaydi) muvofiq truakar" ko'p darajada erkinlikka" uta bo'ladi.

Sof yon tomonni tadbiq etish imkoniyati cheklangan, chunki u auditoriyani ko'zdan kechirish nuqtai nazardan juda xam yaroqsizdir, lekin muozananat vazifalarini hal qilish uchun yaroqli (xuddi shuningdek burilishida yarim egilib to'xtash kabi). masalani, kirtib turganday ko'rinish, shuningdek, sub'ekt niyatlarining yashirinligi sezgisini bildirish uchun yaroklidir.

Jismoniy harakatlar usuli K.S.Stanislavskiy sistemasining asosiy qismi hisoblanadi. U opera-drama studiyasidagi o'z shogirdlariga quyidagilarni aytgapligi (1935 yil noyabrdagi suxbatning stenogrammasi) bejiz emas: "Kimda-kim kichik jismoniy harakatlarni bajarsa, u sistemaning yarmini bilgan buladi".

Jismoniy harakatlarni bajarishni «harakatga sozlash» dan va "muskul siqilishlariga barxam berish" usulidan boshlash zarur.

"Sozlash" ga quyidagilar kiradi: talabaning ichki ixchamligi, uyushqokligi, sheringini tirsagini xis qilib turishi, o'quv va ijodiy ish jarayoniga faol kirishishga hozirlanadi.

«Harakatga sozlash» uchun materialga bo'lib, o'quv jarayonining o'zi xizmat qiladi: pedagogik paydo bo'lganda u bilan tik turib salomlashish kerak. lekin shovqin solmay, uyushqoqlik bilan jushqin tez ayni vaqtida oson- va yoqimli salomlashish kerak. So'ngra talabalarga bir joydan ikkinchi joyga shovqinsiz o'tish, mebelni kayta qo'yish, yarim doira bo'lib ikki qatorga o'tirish, o'z stullari

bilan birga joylarini almashtirish va nixoyat, bularning hammasiii ko'zni yumib amalga oshirish taklif qilinadi.

Bu xildagi mashqlar talabalarni intizomli qiladi, shovqin solmaslik va jismoniy harakatlarni ko'zni yumib bajarish, darsning rasmiy-ichki vaziyatini emas, balki bir qadar sirli g'ayritabiylilikni vujudga keltiradi. So'ngra "sozlash" murakkablashadi: xammani xam bir vaktda o'rnidan turib, to'g'ri doira xosil qilishi, bir vaqtda ^tirishi, barcha ishni jimgina bajarishi, keyin xamma narsani musiqa ovozlari jurligida turli sur`atda va harakatlar xususiyatini o'zgartirish bilan amalga oshirish kerak.

So'ngra o'quvchi guruhining har bir a`zosiga "jismoniy harakatlarni bajarishga sozlash" sifatida o'z xoxishi bo'yicha qo'shiq aytish taklif etiladi. Bu xol talabalarni "erkin qiladi". Topshiriqlar murakkablashtiriladi, bundan maqsad topshiriqlarni bajarishga doir turli analizatorlarni (ko'rish, eshitish aializatorlari, ularning qo'shilishlari va "jilolari"ni) mashq qildirish va sozlashdir. Masalan, bitta signal bo'yicha ovoz chiqarib qushik aytish ikkinchi signal bo'yicha ko'shikni ichda kuylashni davom ettirish, so'ngra xor bo'lib kuylash, bitta signal bo'yicha fikran, ikkinchi signal bo'yicha ayrim tovushlarni aloxida ajratib ko'lash kerak. O'zaro harakat qilishga va diqqatni ushlab tura olishga qaratilgan sozlash mashq qilinadi.

Ba`zan ana shu maqsadlarda talabalarga u yoki bu raqamlar qo'yiladi va pedagogik qarsak chalishi bilan "bosma mashinka" ishlay boshlaydi yoki dam oladi.

Asab jarayonlarning tezligi uchun musobaka tariqasida talabalar signal bo'yicha muayyan harakatlar majmuini bajarib ko'rishlari kerak. So'ngra muskullarni bo'sh qo'yish mashqlarda "nol' holat", ya`ni zurikishni bushashtirishdan ajratib turadigan xolat izlanadi. "Nol holat" ni topish uchun talabalar muskul zo'riqishi yuqoridan pastga, muskuldan muskulga qarab kuzatish" mashqini bajarib ko'radilar. Ularning holatiga baxo berib, betaraf (xolis) sezgilarni izlaydilar. Dastavval "nol' xolat" yuzdan qidiriladi: yuz muskullarini "harakatga keltirish" ularni burishtirish, zo'riqishiga va bo'shashiga baxo beradigan va nol' kayfiyat izlanadi.

Ko'pgina o'quvchilarda qadam tashlash (yurish) va pantamimika burchaksimon bo'lib, muskullarning siqilishi ularni erkin nafas olishlariga halaqt beradi. ular, aytish mumkin, xuddi "xoda yutgandek" kekkayib yurishadi. Bu holatlarga barxam berish uchun gavda muskullarga ishlov beradigan, nafis kadam tashlash tavsiya etiladi.

Qo'l muskullarni buyuatish uchun irodani zo'riqtirish mashqni ham boshlash, keyin barmoq muskullarni bo'shatish kerak buladi. Bunish uchun oldinip barmok zo'riqtirish (tarang qilish), uni musht qilib qisish, keyin elka oldi va elka muskullari bilan ishlash, sungra qo'lda og'irlilikni va bo'shashni xis qilishga erishish zo'r. shunda qo'l novdaday osilib turadip. Agar qo'l muskullarida zo'riqish bo'lmasa, u haqiqatdan ham bo'shashgan bo'lsa mashq bajarilgan hisoblanadi, Ikkinci ko'l bilan ham, keyin har ikkala qo'l bilan ham birgalikda shunday qilib ko'rildi.

Navbatdagi mashq zo'riqishni va bo'shashishni alohida-alohida sezish mashqidir. Masalan, o'ng qo'l bilan chap oyoq muskullarini bo'shatib, chap qo'lni va o'ng oyoqni zo'riqtirish mumkin. Talablar harakatni burish va qaytarishni mashq qiladilar, xuddi muskul quvvatini qo'l bo'y lab elkanan barmoq uchlariga etkazganday bo'ladilar, so'ngra "u oqqa qara", "yo'qol bu erdan" ifodali harakatlarni qiladilar. Mashqlar ongli harakatlarni psixologik jihatdan "oqlash" bilan etkaziladi:

Qo'l panjasining pastdan yuqoriga keng tashlanishi salomlashish imo-ishorasi, yukoridan pastga tashlanishi-barmoqqa yopishgan xamirni silkitish, barmoqlarni bukish va ochish bilan birga qo'l panjasini yuqoriga va pastga harakat qildirish-xamirni aralashtirish, barmoqlarni shiddat bilan oldinga tashlash-gianastik qo'l harakatlari va shu kabilardir. Muskullarni bo'shashi "oqlash" dan tashqari fikriy tasavvur qilish va ongli ravishda o'z-o'ziga ta'sir qilish bilan birga borishi mumkin.

3. Xotira, diqqat va xayolni mashq qildirish aktyorlik psixotexnikasining uch asosiy qismi. Xotirani mashq qildirish aktyorlik psixotexnikasiniig mashh qildirishning mashhur qoidalari va usullari asosida amalga oshiriladi. Ma'lumki, diqqat-psixik faoliyatni shunday tashkil etishdan iboratki, unda muayyan idroklar, tasavvurlar, fikr yoki his-tuyg'ular ikkinchi planga o'tib ketgan yoki butunlay anglab bo'lmaydigan boshqa idroklar, tasavvurlar, fikrlar yoki xis-tuyg'ularga qaraganda aniqroq idrok etiladi.

K.S.Stanislavskiy umumiyligi psixologiya tushunchalariga to'la qo'shilgan holda diqqat ongning muayyan ob'ektidagi yo'nalishi va jamlanishi bilan namoyon bo'ladi, deb hisoblagan edi. Aktyorlik psixotexnikasini mashq qildirish tarkibiy qismlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Atoqli aktyor Mixail Chexov "Aktyorning texnikasi to'g'risida" nomli kitobida diqqatni mashq qildirishga doir quyidagi mashqlarni maslaxat bergen edi: "... 1-mashq: Oddiy buyumni tanglab oling. Uni ko'zdan kechirib chiqing. Buyumga "qarash" dan qochingda, o'zingiz uchun uni tashqi ko'rinishini tasvirlang. Diqqat jarayonini tashkil etuvchi hamma harakatni ichdan (ruxiy)-qilib ko'ring: buyumni qo'lga olib, uni o'zingizga torting, unga intiling, u bilan birga qo'shilib ketishga harakat qilganday ichiga kiring. Bu harakatlarni xar birini dastlab aloxida-aloxida, keyin birgalikda qiling, ikkitadan, uchtadan va xokazo qilib birlashtiring. Mashqni davom etiring, shuni kuzatib boringki, sizning sezish a`zolaringiz xam, gavda muskullarnigiz xam ortiqcha zo'riqmasin. Diqqatingiz ob'ektini quyidagi tartibda almashtiring: 1-oddiiy ko'rinaligan buyum, 2-tovush, 3-odam nugqi, 4-esga tushgan oddiy buyum, 5-esga tushgan tovush, 6-esga tushgan odam nutqi (so'z yoki bitta ibora), 7-siz yaxshi bilgan, esga tushgan kishi obrazi, 6-p`esa yoki adabiyotdan olingen obraz, 9-xayoliy mavjudot, manzara, me'moriy shakl va shu kabilarning siz o'zingiz yaratgan obrazi. Diqqat va uning to'rtta harakati siz uchun bajariladigan, yagona, ma`naviy ishga aylanguncha mashqni davom ettiring..." Ayniqsa, boshlanishida o'zingizni charchaydigan darajaga olib bormang. Mashqlarning onda-sonda bajarishdan, kura, ularning muntazamligi (bir kunda ikki uch marta) muhimroqdir. Vaqt-i-vakti bilan dastlabki ancha oddiy mashqlarga qayta murojaat qilib ko'ring".

Ishni diqqatga doir vazifalardan boshlash tavsiya etiladi. O'quv xonasida bor bo'lgan har qanday ob`ektga (qalam, siyoxdon, kuzgu) e'tiborni qaratish mumkin, zaruriy shart "sahna" ga (yozuv taxtasi yonidagi shartli joyga) chiqishdir.

"Sahna"ga chiqish o'z-o'zidan butuilay sog'lom talabalarda "saxna sarosimasi" yoki xayajonlanishniig boshqa shakllari bilan birga bo'ladi, talabalar o'zlarii yo'kotib qo'yib, ob`ektda diqqatlarini bir joyga jamlab ola olmaydilar. Ishchanlik qobiliyatlari pastroq bo'lgan o'quvchilar bilan ishslash yana xam murakkabdir.

Shunday qilib o'qtvchi bir-ikki daqiqa ichida butun gurux oldida "sahna"da turgan buyumga (masalan, stulga) ko'z yogurtirib chikadi va nedagogning "buldi" degan komandasini bilan o'zi kuzatib bo'lgan narsalarni, buyumni o'zi sezgan fazilatlarini gapirib beradi. O'kituvchi har gal "sahna" ga chiqqanida asta-sekin, lekin har holda rejali, osoyishta va diqqat bilan ishlay boshlaydi: u endi buyumning tafsilotlarini payqab oladi va hatto ularni turkumlarga ajratadi-buyumning rangini, shaklini va u qanday materialdan yasalganligini, uning tarkibiy qismlarini, qaerda turishi va shu kabilarni aytadi. U talabaning ko'prish diqqatidan tashqari, eshitish diqqatini ham mashq qildiradi: nimani eshityapsiz, qanday tovushlar kelyapti, ular qaerdan eshitilyapti, ularning tarkibiy qismlari, turgan joyi kanday?

Tashqi buyumlarni ko'rishdan tashqari ichki diqqatni-uni biror fikrga yoki muammoga qaratishni mashq qildirish tavsiya etiladi, bundan maksad-uni har tomonlama karab chiqishdir.

Mashqlarning navbatdagi guruhi diqqatning harakatchanligi va ko'chuvchanligini mashq qilishga qaratilgan. Talabalar auditoriyasiga birorta ob`ektga (masalan, auditoriyagidagi eshik derazaga) diqqatini qaratish taklif etiladp, so'ngra boshqa ob`ekt (masalan, bilakuzuk, talabaning soatidagi tsiferblat) tilga olinadi va diqqat qaratilgach, uqituvchi navbat bilan komanda beradi; "deraza", "soat", "deraza", "soat" va xokazo.

Talabalar oldiga qo'yiladigan asosiy vazifa-jismoniy harakatlar orqali, "muskul quvonch" orqali ichki ma'naviy shodlik holatini topishdai iborat bo'lib, u yuksak ishchanlik qobiliyatiga, to'la kuch bilan ishslash istagini paydo bo'lishiga yordam beradi. Bundan tashqari, yakunida yuksak maqsad "o'ta vazifa" o'zni xuddi tajribali pedagog sifatida tutish vazifasi qo'yiladi. Bu tasavvur hulk-atvordagi jismoniy mashq orqali o'zini baxtiyor va mehnatsevar xis qilshida yordam beradi.

Shunday qilib jismoniy harakatlarping tashqi tomoni orqali psixologik tomonni mashq qildirish sodir bo'ladi, u sesomotor ko'nikmalar, xayol, xissiy reaksiyalarni chuqurlashtirishga qaratilgandir. Jismoiyi harakatlar usuli ayrim O'zaro fikr almashish ko'nikmalarini mashq qildirish uchun ham qo'llaniladi. Baxamjihat bo'lib ishslash-o'zaro bog'langan jamoa faoliyat-guruh a`zolarini jipslashtirishga, ularning biriichi navbatda psixofiziologik jixatdan muvofiq kelishiga yordam beradi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari: o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishslash (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash)dir.

Pedagog texnika malakalarining individual-shaxsiy tusda ekanligi hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirshda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya`ni talabaning o'zida mohir o'qituvchi shaxsiy fazilatlarni va kasbiy malakalarini shakillantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol' o'ynaydi, deb aytish mumkin.

Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruh bilan yoki ketma-ketlikda o'tkazilishi mumkin. Masalan, zarur bilimlar ma'ruzalarda yoki tegishli adabiyotni mustaqil o'qishda egallanishi mumkin.

Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (to'g'ri artikulyatsiya, fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) ketma-ket ko'rsatilish mumkin.

Pedagogik texnika malakalarini shakillantirishning boshlang'ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi etishmaydigan malakalarini shakillantirishga qaratilgan ayrim mashqlarni yoki mashqlarning to'liq majmuini o'z ichiga oladi.

Oliy o'quv yurtidagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikaning egallash o'qituvchiga o'zining kasb yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatoliklarning holi bo'lishda, o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Pedagogik tehnika o'qituvchi faoliyatida qanday rol' o'ynaydi?
2. Pedagogik tehnika bilan pedagogik maxorat qanday nisbatda bo'ladi?
3. Pedagogik mimikasi va pantomimikasinging tarbiyaviy ahamiyatini ayting?
4. Teatr va pedagogik san`atning umumiy va o'ziga xos tomonlari qaysilar?.
5. Pedagogik jarayondagi rejissyorlik va aktyorlik elementlari.
6. Bo'lajak pedagoglarning aktyorlik psixotexnikasi usullari nimalardan iborat?

## **O'QITUVCHI MEHNATINI ILMIY TASHKIL ETISH.**

### **REJA:**

1. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish haqida tushuncha.
2. O'qituvchi mehnatini nazariy va amaliy tashkil etish.
3. Pedagogik faoliyatni rejalshtirishning asosiy qonuniyatları.
4. Pedagogik faoliyatni rejalshtirish shakllari va bosqichlari.
5. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'qituvchi mehnatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.

Har qanday mehnatning muvaffaqiyatli va samarasi uni tashkil etishga, bu mehnatni uyushtirishga ta'sir, etadigai shart-sharoitlarga, faoliyatni amalgalashishga bo'lgan qurʼoniyatni qayd etishga hamda bunga ta'sir etadigan shart-sharoitlarni qayd etishga bog'liq. Har qanday mehnatni bajaruvchi shaxs o'qituvchi ham o'z ishini tashkil etishga o'ziga ma'qul bo'ladigan, o'zi yaxshi egallagan mahorat bilan bajara oladigan uslublarni tanlaydi. Biz ilmiy texnika taraqqiyoti davrida yashamoqdamiz. Demak, o'z ishimizni tashkil etishimizda ham fan texnika yutuqlariga asoslash kerak bo'ladi. Bu ishning o'qituvchi ham, o'z mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishi demakdir.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish deganda pedagogik jarayonni boshqarish uchun pedagogika va psixologiya faning eng so'ngi yutuqlaridan foydalansak holda o'z ishini ijodiy tashkil etib yangiliklar yaratish tushuniladi. O'qituvchi mehnati uning vaqtini bilan bog'liq bu ishning muvaffaqiyati vaqtidan unumli foydalananish o'zining imkoiyyatlarini to'la hisobga olish, o'quv va tarbiya jarayonida o'zini namoyish etish va o'zining kimligini, qanday ekanini, nimalarga qodir ekanini tasdiqlash bilan bog'liq.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish birinchi navbatda o'zining ijodiy imkoniyatlariga ishonish demakdir. O'qituvchi ta'lim jarayonini to'la tasavvur etishi kerak, uning mexanizmini, qonuniyatlarini, bolani bilan imkoniyatlarini yaxshi anglashi kerak.

Mehnat shaxsining bir maqsadga yo'naltirilgai ijtimoiy-foydali faoliyati bo'lib, u aqliy, jismoniy kuch, zo'r g'ayratni talab etadi.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish tamoyillari:

- |                   |                    |
|-------------------|--------------------|
| 1. Rejalshtirish. | 3. Boshqarish.     |
| 2. Tashkil etish. | 4. Nazorat qilish. |

O'qituvchi mehnati-ijodiy kasblar turiga kiradi. Chunki tu mehnat orqali har tomonlama etuk bo'lgan komil insonni tarbiyalaydi.

1. Pedagogik mehnat predmeti-tirik shaxs.

2. Pedagogik mehnat maqsadi-har tomonlama etuk bo'lgan komil insonni tarbiyalash. Pedagogik mehnat natijasi o'quvchilarni mustaqil ishlay olishi, darslarda o'z fikrini bildira olishi, isbotlay olishi, taxlil qila olishidir. Pedagogik mehnatning mohiyati va o'ziga o'qitish va tarbiyalash.

O'ziga xosligi shundaki:

A) ikki tomonlama ta`sir etishi;

B) faqat bir o'quvchi bilan emas, jamoa bilan ishlay olish;

V) o'quvchi va o'qituvchining birga faoliyati. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etishda namoyon bo'ladigan 3 ta konkret belgilar:

1. Vaqtan imkon qadar samarali foydalashni;

2. Mehnat va dam olish uchui yaratilgan qulay shart- sharoitlardan samarali foydalanish, uni tashkil etish;

3. Barcha imkoniyatlarni ishga solgan holda mehnat qilishi uchun sog'lig'i va har tomonlama g'amxo'rlik qilish, qonuniyat va tamoyillarning bajarilishi o'qituvchi mehnatining yo'nalishiga bog'liq:

1. Ishga tajribasi.

2. O'rganish va tushuntirish tajribasi.

3. Ishlash uchun sharoitni yaratilishi va ish joyining jihatni.

1- yo'nalish. O'qituvchi kasbiga oidlari:

a) o'q ishiga, kasbiga oid chuqur bilimlarni egallash;

b) davlat tomonidan qabul qilingan hujjatlar qonunlarini bilish;

v) pedagogika, psixolognya va xususiy metodikani o'rganish;

g) bolalar jamoasi va shaxsi haqidagi bilimlarni o'rganish;

d) ilg'or tajribani o'rganish va o'z ishida tadbiq etish;

e) o'z ustida ishslash va o'z-o'zini tarbiyalash.

2- yo'nalish.

O'z mahorat elementlarinn xosil qilish:

a) O'z ishiga kerakli bo'lgan va pedagogik mahoratini oshirishdagi ko'nikma va malakalarini egallash;

b) o'z kuchi va qobiliyatini to'g'ri ishlata olish;

v) o'z vaqtida kerakli va to'g'ri qaror qabul qilish.

3- yo'nalish.:

a) ishning sharoiti va kollektivdagi ma`naviy holat;

b) jamoadagi psixologik holat;

v) ijodiy yondashuv;

g) insonparvarlik;

d) rag'batlantirish;

e) gigiena qoidallriga rioxaya qilish;

j) kunni to'g'ri tashkil etish.

4- yo'nalish:

O'qituvchini o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil etish uchun ma'lum darajada peagogik fazilatlar bo'lish kerak:

a) kim bilan ishlayotganini aniq bilishi uchun ular haqidagi to'liq ma'lumotga ega

bo'lish;

- b) o'z xohishi va maqsadini aniq bilish;
- v) o'z oldiga vazifa qo'ya olish;
- g) kerakli mazmun, shakl, metodlarni tanlay olish;
- d) har ishning holatiii taxlil qila olish;
- e) metodik qo'llanmalarini o'rganish va ularni to'play olish;
- j) vaqtini to'g'ri taqsimlash.

Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda o'qituvchining kui tartibi va joyi muhim rol' o'ynaydi. O'qituvchi o'zi uchun eng optimal yuqori unum beradigan kun tartibini topa olishi kerak. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda quyiladigan talablarni I. P. Radchenko, R. Rasulova (Tashauzlik olima) tomonndan ishlab chnqilgan. Ularning tavsiyasiga ko'ra pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish eng muhim talablarni bu asosiy rejulashtirishni, faoliyatini uyushtirish unda qatnashayotganlarning kuchini yagona maqsadga bo'ysundirish, rag'batlantirnsh, operativ nazoratni hisobga olpsh. Shuni rejulashtirishdagi asosiy masala uyushtiradigai barcha faoliyat turlarini unda qatnashayotgai kollektiv va a'zolarni umumiyligi pedagogik maqsadga bo'ysuidrnishni ko'zda tutadi, bunda yaqin, o'rta, uzoq maqsadlarni inobatga olish ko'zda tutiladi.

Shunday qnlrb o'qntuvchining kun tartibini uning faoliyati va xayotni tartibga soluvchi asosdir. U yo'q joyda mehnat unumi ham past bo'ladi, salomatlik yo'qilib boradi. Natijada o'qituvchi sarf qilgan kuchini qayta tiklay olmaydi, ish qobilyati yo'qoladi, oqibatda sifati pasayadi. Demak, ilmiy asoslangan *kun* tartibi o'qituvchilarning o'z mehnatini ilmiy tashkil etish vazifasini hal etishga qo'yilgan qadam bo'ladi. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish shartlaridan yana biri nsh o'rnini tartibga solish va mehnat sharoitini tashkil etishdir. O'qituvchining ish joyi ish darajasining bir qismi bo'lib, mehnat unumining yuqori bo'lishiga ta'sir etadn. O'qituvchining shu joyi, xususiyati, pedagogik mehnati mazmun xususiyati bilan belgilanadi.

Mehnat sharoit tushunchasi komplsks tushuncha. Mehnatni ilmiy tashkil etish tajribasiga mehnat sharoiti dsganda odamning mehnat qilayotgan joyi, konkret vaziyat, ko'zda tutiladi. Yana unga psixofizialogik, ijtimoiy, psixologik estetik omillar ham qo'shiladi.

Pedagogik mehnatnnng samarasi, maqsadi va faoliyat vaznfasiga ko'ra bilishda va annqlai olishdadir. Shundapsha shuni ilmiy tashkil etish mumkin bo'ladi. Bu o'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning birinchi tamoyilidir. 2-chi tamoyili faoliyat uslubini belgilash.

3-tamoyili pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda texnikadan vosita sifatida samarali foydalanish tushuniladn. Bu tamoyil ko'nikma va malakalarni shakllaitirishga xizmat qiladigan pedagogik texnika va texnik vositalar yig'indisi ko'zda tutiladi.

4-tamoyili ta`lim-tarbiya ishining rejulashtirish hioylanadn. Reja ta`lim-tarbiya faoliyatini tartibga solish, uning modelini yaratish, tayanch sxemalarini topish masalalaridan tashkil topadi. Shular aniqlansa, o'qishda rivojlanish, tarbiyalash jarayoni engillashadi.

Shuni rejulashtirmasdan turib shaxsni va jamoani ijtimoiy jihatdan samarali rivojlantirib bo'lmaydi, bu esa jamiyatga ham ijtimoiy, ham iqtisodiy zarar

keltiradi. Pedagogik mehnatni nazorat qilish va hisobga olish prinsipni o'qituvchi ishini muntazam va planli kuzatib borish shundan yutuq va kamchiliklarni anshqlash, muhimlarini ajratib olish ko'zda tutiladi. Hisobga olishni eig maqbul yo'li statistik hisobga olishdir. Pedagogik nazorat esa ob'ektivlik, omilkorlik, samaradorlik, muntazamlilik va oshkorlikni talab qiladi.

O'qituvchi mehnatini nazorat qnlish va hisobga olishning muntazamliligi, izchilliliqi quyidagilardan tashkil topadi:

- A) o'quv materiallari va tarbiyaviy tadbirlarga tayyorlanishni o'zi tomonidan nazorat qilinishi;
- V) darsdan tashqari vaqtarda ta`lim-tarbiyani nazorat qilish va o'zini kuzatish;
- V) o'qituvchining darsdagi tashqari vaqtni nazorat qilish;
- G) ota-onalar va jamoatchilik bilan bajariladigan ishlarni nazorat qilish;
- D) o'z ustida ishslashni nazorat qilish.

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakteri bilan bog'liq. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiyl maqsadga bo'ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarni yechish jaroyondir. O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni echish usularida, ularni hal qila olish yo'llarini qidira topa bilishlarida ifodalanadi.

Pedagogik ijodkorlik manbai-bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba-muammoli vaziyatlarga juda boydir.

Ilg'or pedagogik tajriba deganda, biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishini, o'quvchilarning ta`lim- tarbiyasida yangi samarali, yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv- tarbiya jaroyoniga yaxshi sifatli o'zgarishlar kiritish, o'quvchilarni bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishidagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarni echishga sabab bo'ladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur.

Hozirgi zamon va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga etkaza olish va nihoyat o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishni talab qiladi.

Shuning uchun o'qituvchi avvalo tadqiqotchilik malkalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy- tadqiqot ishlari olib borish davomida ma'lumotlarni to'playdi., tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim fazilatlarni egallaydi.

Pedagogik tajriba o'qituvchining o'quv ishlari jaroyonida egallaydigan bilim va ko'nikmalari yig'indisidir. Bu o'qituvchining pedagogik mahorati bo'lib, u pedagogika fanini rivojlanishida boshlang'ich omil hisoblanadi. Pedagogik tajriba to'plash tizimi:

1. Maksadni belgilash (nimani o'rganaman).
2. Tahlil etish, umumlashtirish xulosa qilish.
3. Yutuqlarini aniqlash.
4. Ma'lumot to'plash.

Maktab o'qituvchilarini ilg'or tajriabalarini o'rganishning taxminiy tarkibi:

1. Nutq texnikasi va madaniyati:
  - a) darsda bilim berishda o'quvchilar bilan alokaga kirishishda o'qituvchi nutqning ishlatalishini baxolash;
  - b) nutq texnikasini egallaganlik darjasи;
  - v) o'qituvchi nutknинг ifodaligi va xis- tuyg'uga boyligi.
2. Professional pedagogik muloqoti
  - a) turli xolatlarda turli va kutilmagan vaziyatlarda xam muloqotga kirisha olishi, muomala qili olishi;
  - b) dars jaroyonida o'z kuchi va tayyorligini hisobga ola bilish o'zining ish uslubini va unga qo'yilgan talablarni bajara olish;
  - v) Pedagogik nazokat va uni kullashni bila olish;
3. Professional pedagogik ta'sir etish
  - a) shaxsga ta'sir etishda tezlik bilan kerak bo'lgan uslublarni tanlay olishi va o'z vaktida ishlata bilishi;
  - b) O'rganish bo'lib kolgan ish tartibidan ketishni bilish;
  - v) pedagogik ta'sir ko'rsatishda vaziyatlarni echishda kerakli bo'lgan mimika, pantomima va harakatlarni tanlay olish o'z vaktida ishlata olish.
4. Konstruktiv qobiliyati
  - a) o'quvchilar qobiliyati qiziqishi bilim darajasini hisobga olish, didaktik materialidan ustalik bilan foydalanish;
  - b) o'quvchilarni sinfni va yukori mukammal darajaga erishish uchun kerakli usul va vositalarni tanlay olish;
  - v) o'quvchilarni va kollektivning bilimligi va tarbiyaviyligi rivojlanganlik darajasini aniklay olish;
  - g) o'quvchilarni tashki qiyofasi orkali ularni darsga bo'lgan munosabatlarini anglay olishi va kerakli bo'lgan vositalarni tanlay olishi ishlataladi.

## **ILG'OR PEDAGOGIK MAHORAT SOHIBLARI**

III.A.Amonashvilining pedagogik metodikasining mazmunida o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish maqsadi yotadi. Uning o'quvchilari o'rtoqlarining ishlarini tekshirib baholaydilar (baho qo'ymasdan albatta). Bir- birlarini yozma ishlarini taqriz qilishadi.

V.F.Shatalovning metodikasining mazmuni takrorlash asosida o'z- o'zini nazorat qilish va o'z- o'zini baholashdan iboratdir. U ma'lum vaqtda topshirilgan vazifa yuzasidan barcha o'quvchilarni baholaydi.

Kundalikni tekshirish va mustaqil ravishda har bir tayanch signallarini baholash fikrlashga ijobiy ta'sir etadi. Tinch signali nima? Bu signallar ma`no ahamiyatini bosuvchi assotsiativ simvoldir. Bu simvol ma'lum tushunarli bo'lgan axborotni bir laxzada xotirani tiklaydi. Yo'l harakatini eslatuvchi belgilar eng yaxshi tayanch signalidir.

Qizil rang- mumkin emas

Yashil rang- ochiq d.m.b Sarik rang- ogohlantirish

S.N.Lisenkovning pedagogik metodikasi mazmuni. U darsda ko'rgazmalik, chizma modellar yordamida dars berish o'quvchilarni faollashtiradi va mustaqil fikrlashga o'rgatadi. O'tilayotgan mavzuni sharxlab boshqaruv darsni harakatlantiruvchi asosiy kuchdir,-deydi. Sharxlab beruvchi uchta harakatni o'zida mujassamlashtiradi.

1. Fikrlash 2. So'zlash 3. Yozish

Bunda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi boshqalar qatori ma'suliyatni sezgan holda harakat qilsa, u ham o'z orqasidan butun sinfni ergashtirib faollahadi.

I.V. Volkovning pedagogik metodikasining mazmuni. U maktabda bolalar uchun «Ijod xonasi» tashkil etib, o'quvchilar bilan ishslashda turli xil yo'naliishdagi ishlarni tanlab, har bir o'quvchini xilma- xil faoliyatida (adabiyot, tasviri san`at, foto kino) o'z qiziqishiga ko'ra kuchini sinab ko'rish, ularni ijodkorlik sifatlarini namoyon qilishga erishdi.

N.N.Paltishevning pedagogikasini mazmuni. U sinf o'quvchilarini qatorlarga bo'lib o'qitishni tashabbuskori. 1. Qator-a`lochilar, 2 kator- o'rta miyonlar, 3 kator-yomon o'zlashtiruvchilar. Bu metodda keyingi ikki qatorning o'quvchilari o'z joylarini o'zgartirish uchun xuddi birinchi qatordagilar kabi o'qishga majburdirlar.

Ochilxon Sharofiddinov pedagogik metodikasini mazmuni. Uning metodi:

1. Darsda puxta tayyorlanish.
2. O'tilgan mavzuni to'g'ri rejallashtirish
3. O'quvchilarda aktivlik
4. Ko'rgazmali quroldan foydalanish.
5. Dars soatidan unumli foydalanish.
6. Dars jarayonida o'tilgan mazmunini ilmiy- g'oyaviy, pedagogik va psixologik jixatdan o'quvchilarga mos bo'lishi.
7. Amaliy mashg'ulotlar va hayotdan olingan misollar bilan bog'lash.

8. Mustaqillikni o'stirishga e'tibor berish muhim o'rin tutadi.

Mamajon Abdurasulovning metodikasi mazmuni VI sinfga qabul qilinadigan bolalar bilan bir yil oldin puxta tanishib chiqadi. U bolalar bog'chasidagi murabbiylar bilan ish olib boradi. Bo'lajak 1 sinf o'quvchilari oktyabr' oydan boshlab, xafasiga bir marta shanba kunlari maktabga borishadi. Bolalar mashg'ulotlarda o'quvchini hikoyasini tinglaydi, diafil'mlar ko'radi, kichik she`rlar, ashulalarni yod oladilar, topishmoqlar bilan tanishadilar, ularni nutqini o'stirishga yordam beradi.

Maryam Yoqubovaning pedagogik metodikasi mazmuni. Uning metodlari:

1. O'quvchilar bilan do'stlik munosabatini o'rgatish.
2. Ta`lim- tarbiya ishlarini o'quvchilar bilan birga baholash.
3. O'quvchi shaxsini hurmat qilish.
4. Talabchanlik.
5. O'quvchi kelajagiga umid bilan qarash.
6. Unga individual yondashish.
7. Jazo usullarini o'rinsiz qo'llamaslik.
8. Kelgusi ishlar rejasini tuzish.

U matematika kabinetini jihozlashga katta e'tibor beradi.

Norjon Rajabov pedagogik metodikasi mazmuni. U «Alifbe» kitobida berilgan kichik- kichik tekstlar o'quvchilar ongida uzoq vaqt saqlanib qolishni ta'minlash maqsadi elektr toki yordamida o'qish uchun elektrotablo ishlab chiqqan. Uni o'quv darsida ham samarali foydalanish mumkin. Ayniqsa bosma harflarni aylantirish yozishda elektrotablo judda katta yordam beradi uni yana bir ixtirosi «Alifbe» ko'chirmasi ko'rgazmali kuroldir. Uning afzaligi o'quvchi undan 35 ta harfni o'rganish jaroyonida o'quv darslarida va alifbe davrini oxirgi kunlarida bosma harflarni yozma shaklda ko'chirib yozishda keng foydalanish mumkin.

Pedagogik mahoratni oshirishda xar bir o'qituvchi o'z bilimini oshirishda sidqidil bilan ishlar va ilg'or o'quvchilarni ish tajribalari o'rganishi nihoyatda muximdir. Toshkentdagи 68 maktab o'qituvchisi A.A.Suxoporova o'quvchilarning madaniy saviyasini oshirish sohasida olib borgan ko'p yillik ishlarni umumlashtirib borgan V-VI sinf o'quvchilarini sinfdan tashqari o'qishlarini yo'lga qo'yish va unga rahbarlik qilish metodlarini yaxshi yuritib, bu ishlarning o'quvchilar madaniy saviyasini oshirishdagi rolni ochib bergen. Tarbiya ishini bu turi bolalarni asosan siyosiy, ijtimoiy, adabiyot va ma`naviy- axloqiy mavzularda ma`ruza qilishga tayyorlash, adabiy konferentsiya, adabiy kecha, viktorinalar tashkil qilish yo'li bilan olib borilgan. Bu o'qituvchilarni ma`ruza materiallarini to'plashlarni bu materiallarni o'rganlarini o'zi qanday yoqtirganini atroflicha yoritib bergen, masalan N.V. Gogolning vafotiga yil to'lish munosabati bilan o'tkazilgan abadiy kechaga tayyorlashni shakl va usuli ayniqsa diqqatga sazovar bo'lган.

Bu tajriba o'qituvchi tarbiyaviy ishda adabiy kechalar o'tkazishda, ko'rilgan kino- teatrlar hakida suxbat va viktorinalar o'tkazishda yaxshi namuna bo'la oladi.

Toshkentdagi 144- məktəb o'qituvchisi A. Atamirzaevning K.D. Ushinskiy va A.S, Makarenko pedagogik g'oyalariga asoslangan holda o'z yaxshi raxbarligida sinf o'quvchilarini individual xususiyatlarını o'rganib yaxshi natija erishgan. Toshkentdagi 1- o'rta məktəb o'qituvchisi E.Baxodirova esa o'quvchilarini har tomonlama o'rganib, ularning darslarini o'zlashtirishni yaxshilash ustida ish olib borgan. U rahbarlik qilayotgan sinfdagi har bir o'quvchini individual xususiyatini bilib ba'zi o'quvchilarning ayrim fanlardan «2» baholash sabablarini o'z vaqtida o'rganib, ularni sinfdagi boshqa o'quvchilarga etishtirib olish, kollektiv bo'lib mustaqil dars tayyorlangan.

Toshkentdagi 97- məktəb o'qituvchisi N.F. Pisareva 1-II sinf o'quvchilarini darslarini o'zlashtirishni yaxshilashda ota- onalarning qanday rol' o'ynashlarini ko'rsatib bergen. Shubhasiz məktəb bilan oila o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish o'quvchilarning darslarini o'zlashtirish sifatiga ijobiy ta'sir qiladi. O'quvchilarning (madaniy saviyasini oshirish sohasida olib boriladigan ishlar), xilma- xil shakllari bo'lishi mumkin. Jumladan.

1. Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga, ijobiy kishilar hayotiga, fan va texnika yutuqlariga oid ma'ruzalar.
2. Sinfdan tashqari kitob o'qish teatr, va kino ko'rishga rahbarlik qilish adabiy kechalar, konferentsiyalar, viktorinalar, suhbatlar o'tkazish.
3. Turli ekskursiyalar o'tkazish.
4. Ro'znama, oynoma va risolalar o'qish.
5. Kinofil'mlar va ko'rganlari yuzasidan suhbatlar o'tkazish.

S. Ahmedov V-VII sinflarda uch yil mobaynida har xil sohalarda turli mavzularda ma'ruzalar o'tkazgan. « General. Rahimov», «O'zbekistonning ilgarigi va hozirgi hayoti».

1. Respublikamiz ajoyib kishilarni hayoti to'g'ri ma'ruzalar.
2. Fan va texnika yutuqlari to'g'risida.

## **PEDAGOGIK TAJRIBANI TO'PLASH TIZIMI**

### **REJA:**

1. Pedagogik ma'lumotlarni ajratish va usularni to'g'ri tanlay bilish.
2. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishga oid materiallarni to'plash.
3. Pedagogik mahoratni takomillashtirishda pedagogik ijodkorlik va shaxsiy ilmiy pedagogik izlanish.
4. O'zining pedagogik faoliyatiga to'g'ri baho bera olish.

### **Adabiyotlar:**

1. F.G. Frolov, Yosh direktor maktabi. T., O'qituvchi, 1991 y.
2. T. Yunusov. Yosh o'qituvchilar bilan ishlashni takomillashtirish yo'llari. T,O'qituvchi, 1990 y.

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakteri bilan bog'liq. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiyl maqsadga bo'ysungan son- sanoqsiz pedagogik masalalarni yechish jaroyondir. O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni echish usularida, ularni hal qila olish yo'llarini qidira topa bilishlarida ifodalanadi.

Pedagogik ijodkorlik manbai-bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba-muammoli vaziyatlarga juda boydir.

Ilg'or pedagogik tajriba deganda, biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishini, o'quvchilarning ta'lim- tarbiyasida yangi samarali, yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv- tarbiya jaroyoniga yaxshi sifatli o'zgarishlar kiritish, o'quvchilarni bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishidagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarni echishga sabab bo'ladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur.

Hozirgi zamon va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga etkaza olish va nihoyat o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishni talab qiladi.

Shuning uchun o'qituvchi avvalo tadqiqotchilik malkalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy- tadqiqot ishlari olib borish davomida ma'lumotlarni to'playdi,,

tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lган juda muhim fazilatlarni egallaydi.

Pedagogik tajriba o'qituvchining o'quv ishlari jarayonida egallaydigan bilim va ko'nikmalari yig'indisidir. Bu o'qituvchining pedagogik mahorati bo'lib, u pedagogika fanini rivojlanishida boshlang'ich omil hisoblanadi. Pedagogik tajriba to'plash tizimi:

5. Maksadni belgilash (nimani o'rganaman).
6. Tahlil etish, umumlashtirish xulosa qilish.
7. Yutuqlarini aniqlash.
8. Ma'lumot to'plash.

Maktab o'qituvchilarilari ilg'or tajriabalarini o'rganishning taxminiy tarkibi:

5. Nutq texnikasi va madaniyati:

- a) darsda bilim berishda o'quvchilar bilan alokaga kirishishda o'qituvchi nutqning ishlatalishini baxolash;
- b) nutq texnikasini egallaganlik darajasi;
- v) o'qituvchi nutknning ifodaligi va xis- tuyg'uga boyligi.

6. Professional pedagogik muloqoti

- a) turli xolatlarda turli va kutilmagan vaziyatlarda xam muloqotga kirisha olishi, muomala qili olishi;
- b) dars jarayonida o'z kuchi va tayyorligini hisobga ola bilish o'zining ish uslubini va unga qo'yilgan talablarni bajara olish;
- v) Pedagogik nazokat va uni kullashni bila olish;

7. Professional pedagogik ta'sir etish

- a) shaxsga ta'sir etishda tezlik bilan kerak bo'lган uslublarni tanlay olishi va o'z vaktida ishlata bilishi;
- b) O'rganish bo'lib kolgan ish tartibidan ketishni bilish;
- v) pedagogik ta'sir ko'rsatishda vaziyatlarni echishda kerakli bo'lган mimika, pantomima va harakatlarni tanlay olish o'z vaktida ishlata olish.

8. Konstruktiv qobiliyati

- a) o'quvchilar qobiliyati qiziqishi bilim darajasini hisobga olish, didaktik materialidan ustalik bilan foydalanish;
- b) o'quvchilarni sinfni va yukori mukammal darajaga erishish uchun kerakli usul va vositalarni tanlay olish;
- v) o'quvchilarni va kollektivning bilimligi va tarbiyaviyligi rivojlanganlik darajasini aniklay olish;
- g) o'quvchilarni tashki qiyofasi orkali ularni darsga bo'lган munosabatlarini anglay olishi va kerakli bo'lган vositalarni tanlay olishi ishlatalidi.

## **ILG'OR PEDAGOGIK MAHORAT SOHIBLARI**

III.A. Amonashvilining pedagogik metodikasining mazmunida o'quvchilarni fikrleshinga o'rgatish maqsadi yotadi. Uning o'quvchilari o'rtoqlarining ishlarini

tekshirib baholaydilar (baho qo'ymasdan albatta). Bir- birlarini yozma ishlarini taqriz qilishadi.

V.F.Shatalovning metodikasining mazmuni takrorlash asosida o'z- o'zini nazorat qilish va o'z- o'zini baholashdan iboratdir. U ma'lum vaqtda topshirilgan vazifa yuzasidan barcha o'quvchilarni baholaydi.

Kundalikni tekshirish va mustaqil ravishda har bir tayanch signallarini baholash fikrlashga ijobiy ta'sir etadi. Tinch signali nima? Bu signallar ma`no ahamiyatini bosuvchi assotsiativ simvoldir. Bu simvol ma'lum tushunarli bo'lgan axborotni bir laxzada xotirani tiklaydi. Yo'l harakatini eslatuvchi belgilar eng yaxshi tayanch signalidir.

Qizil rang- mumkin emas

Yashil rang- ochiq d.m.b Sarik rang- ogohlantirish

S.N.Lisenkovning pedagogik metodikasi mazmuni. U darsda ko'rgazmalik, chizma modellar yordamida dars berish o'quvchilarni faollashtiradi va mustaqil fikrlashga o'rgatadi. O'tilayotgan mavzuni sharxlab boshqaruv darsni harakatlantiruvchi asosiy kuchdir,-deydi. Sharxlab beruvchi uchta harakatni o'zida mujassamlashtiradi.

1. Fikrlash    2. So'zlash    3. Yozish

Bunda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi boshqalar qatori ma'suliyatni sezgan holda harakat qilsa, u ham o'z orqasidan butun sinfni ergashtirib faollahashi.

I.V. Volkovning pedagogik metodikasining mazmuni. U maktabda bolalar uchun «Ijod xonasi» tashkil etib, o'quvchilar bilan ishslashda turli xil yo'naliishdagi ishlarni tanlab, har bir o'quvchini xilma- xil faoliyatida (adabiyot, tasviriy san'at, foto kino) o'z qiziqishiga ko'ra kuchini sinab ko'rish, ularni ijodkorlik sifatlarini namoyon qilishga erishdi.

N.N.Paltishevning pedagogikasini mazmuni. U sinf o'quvchilarini qatorlarga bo'lib o'qitishni tashabbuskori. 1. Qator-a`lochilar, 2 kator- o'rta miyonlar, 3 kator-yomon o'zlashtiruvchilar. Bu metoddha keyingi ikki qatorning o'quvchilari o'z joylarini o'zgartirish uchun xuddi birinchi qatordagilar kabi o'qishga majburdirlar.

Ochilxon Sharofiddinov pedagogik metodikasini mazmuni. Uning metodi:

9. Darsda puxta tayyorlanish.
10. O'tilgan mavzuni to'g'ri rejallashtirish
11. O'quvchilarda aktivlik
12. Ko'rgazmali quroldan foydalanish.
13. Dars soatidan unumli foydalanish.
14. Dars jarayonida o'tilgan mazmunini ilmiy- g'oyaviy, pedagogik va psixologik jixatdan o'quvchilarga mos bo'lishi.
15. Amaliy mashg'ulotlar va hayotdan olingan misollar bilan bog'lash.
16. Mustaqillikni o'stirishga e'tibor berish muhim o'rinni tutadi.

Mamajon Abdurasulovning metodikasi mazmuni VI sinfga qabul qilinadigan bolalar bilan bir yil oldin puxta tanishib chiqadi. U bolalar bog'chasidagi murabbiylar bilan ish olib boradi. Bo'lajak 1 sinf o'quvchilari oktyabr' oydan boshlab, xafkasiga bir marta shanba kunlari maktabga borishadi. Bolalar mashg'ulotlarda o'quvchini hikoyasini tinglaydi, diafil'mlar ko'radi, kichik

she`rlar, ashulalarni yod oladilar, topishmoqlar bilan tanishadilar, ularni nutqini o'stirishga yordam beradi.

Maryam Yoqubovaning pedagogik metodikasi mazmuni. Uning metodlari:

9. O'quvchilar bilan do'stlik munosabatini o'rgatish.
10. Ta`lim- tarbiya ishlarini o'quvchilar bilan birga baholash.
11. O'quvchi shaxsini hurmat qilish.
12. Talabchanlik.
13. O'quvchi kelajagiga umid bilan qarash.
14. Unga individual yondashish.
15. Jazo usullarini o'rinsiz qo'llamaslik.
16. Kelgusi ishlar rejasini tuzish.

U matematika kabinetini jihozlashga katta e'tibor beradi.

Norjon Rajabov pedagogik metodikasi mazmuni. U «Alifbe» kitobida berilgan kichik- kichik tekstlar o'quvchilar ongida uzoq vaqt saqlanib qolishni ta'minlash maqsadi elektr toki yordamida o'qish uchun elektrotablo ishlab chiqqan. Uni o'quv darsida ham samarali foydalanish mumkin. Ayniqsa bosma harflarni aylantirish yozishda elektrotablo judda katta yordam beradi uni yana bir ixtirosi «Alifbe» ko'chirmasi ko'rgazmali kuroldir. Uning afzaligi o'quvchi undan 35 ta harfni o'rganish jaroyonida o'quv darslarida va alifbe davrini oxirgi kunlarida bosma harflarni yozma shaklda ko'chirib yozishda keng foydalanish mumkin.

Pedagogik mahoratni oshirishda xar bir o'qituvchi o'z bilimini oshirishda sidqidil bilan ishlar va ilg'or o'quvchilarini ish tajribalari o'rganishi nihoyatda muximdir. Toshkentdag'i 68 maktab o'qituvchisi A.A.Suxoporova o'quvchilarining madaniy saviyasini oshirish sohasida olib borgan ko'p yillik ishlarni umumlashtirib borgan V-VI sinf o'quvchilarini sinfdan tashqari o'qishlarini yo'lga qo'yish va unga rahbarlik qilish metodlarini yaxshi yuritib, bu ishlarning o'quvchilar madaniy saviyasini oshirishdagi rolni ochib bergen. Tarbiya ishini bu turi bolalarni asosan siyosiy, ijtimoiy, adabiyot va ma`naviy- axloqiy mavzularda ma`ruza qilishga tayyorlash, adabiy konferentsiya, adabiy kecha, viktorinalar tashkil qilish yo'li bilan olib borilgan. Bu o'qituvchilarini ma`ruza materiallarni to'plashlarni bu materiallarni o'rganlarini o'zi qanday yoqtirganini atroflicha yoritib bergen, masalan N.V. Gogolning vafotiga yil to'lish munosabati bilan o'tkazilgan abadiy kechaga tayyorlashni shakl va usuli ayniqsa diqqatga sazovar bo'lgan.

Bu tajriba o'qituvchi tarbiyaviy ishda adabiy kechalar o'tkazishda, ko'rildan kino- teatrlar hakida suxbat va viktorinalar o'tkazishda yaxshi namuna bo'la oladi. Toshkentdag'i 144- maktab o'qituvchisi A. Atamirzaevning K.D. Ushinskiy va A.S, Makarenko pedagogik g'oyalariga asoslangan holda o'z yaxshi raxbarligida sinf o'quvchilarini individual xususiyatlarini o'rganib yaxshi natija erishgan. Toshkentdag'i 1- o'rta maktab o'qituvchisi E.Baxodirova esa o'quvchilarini har tomonlama o'rganib, ularning darslarini o'zlashtirishni yaxshilash ustida ish olib borgan. U rahbarlik qilayotgan sinfdagi har bir o'quvchini individual xususiyatini bilib ba'zi o'quvchilarining ayrim fanlardan «2» baholash sabablarini o'z vaqtida

o'rganib, ularni sinfdagi boshqa o'quvchilarga etishtirib olish, kollektiv bo'lib mustaqil dars tayyorlangan.

Toshkentdagi 97- mabkab o'qituvchisi N.F. Pisareva 1-II sinf o'quvchilarini darslarini o'zlashtirishni yaxshilashda ota- onalarning qanday rol' o'ynashlarini ko'rsatib bergen. Shubhasiz mabkab bilan oila o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish o'quvchilarning darslarini o'zlashtirish sifatiga ijobjiy ta'sir qiladi. O'quvchilarning (madaniy saviyasini oshirish sohasida olib boriladigan ishlar), xilma- xil shakllari bo'lishi mumkin. Jumladan.

6. Mamlakatimiz( ijtimoiy-siyosiy hayotiga, ijobjiy kishilar hayotiga, fan va texnika yutuqlariga oid ma'ruzalar.
7. Sinfdan tashqari kitob o'qish teatr, va kino ko'rishga rahbarlik qilish adabiy kechalar, konferentsiyalar, viktorinalar, suhbatlar o'tkazish.
8. Turli ekskursiyalar o'tkazish.
9. Ro'znama, oynoma va risolalar o'qish.
10. Kinofil'mlar va ko'rganlari yuzasidan suhbatlar o'tkazish.

S. Ahmedov V-VII sinflarda uch yil mobaynida har xil sohalarda turli mavzularda ma'ruzalar o'tkazgan. « General. Rahimov», «O'zbekistonning ilgarigi va hozirgi hayoti».

3. Respublikamiz ajoyib kishilarni hayoti to'g'ri ma'ruzalar.
4. Fan va texnika yutuqlari to'g'risida.

### **Tayanch tushunchalar:**

Pedagogik ma'lumotlar, ilg'or pedagogik tajriba, ilmiy pedagogik izlanish.

### **Tekshirish va o'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:**

1. Pedagogik ma'lumotlar deganda nimani tushunasiz?
2. Ilg'or pedagogik tajriba nimada?
3. Pedagogik ijodkorlik va shaxsiy pedagogik izlanish.

## **MAVZU: NUTQ TEXNIKASI VA MADANIYATI**

### **REJA:**

1. Nutqning inson hayoti va ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishdagi ahaviyati.
2. Nutq shakllari va nutqning uslubiy turlari.
3. Nutq organlari.
4. Ovoz va nutq texnikasi.
5. O'qituvchi ovozidagi yetishmjvchiliklarni bartaraf etish usullari.
- 6.“Nutq madaniyati” tushunchasining mohiyati.
- 7.Pedagogik muloqot jarayonida fikrni og'zaki bayon etish turlari.
- 8.Pedagogik muloqot jarayonida fikrni yozma bayon etish turlari.
- 9.“Notiqlik” va “notiqlik san'ati” tushunchalari.
- 10.Notiqlikning ommaviy usullari va o'quvchilar oldida nutq so'zlash.

O'qituvchining takomillashgan nutqqa ega bo'lishi o'quv materiallarning o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirishni ta'minlash garovidir. O'quvchilar nutqiga alohida e'tibor beradilar. Biror harf yoki tovush noto'g'ri aytilishi kulgiga sababchi bo'ladi. Bir hil ohangdagi nutq o'qituvchilarni tezxda charchatadi.

Ayrim mutaxassislar tovush va uning tembri tug'ma xususiyat, deydilar, lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovush sifatini o'zgarishi mumkinligi tasdiqlaydi.

Bugungi kunda nutq texnikasi bo'yicha bir necha mashq komplekslari ishlab chiqilgan. Ular asosan teatr pedagogikasi tajribasiga asoslangan bo'lib, so'zlashish paytida nafas olish, tovush hosil qilish va uni ma'noli ifodalash malakalarini takomillashtiradi, bu esa o'qituvchiga o'z so'zi mazmunini o'qituvchilarga yanadi to'laqonli qilib etkazishga imkon beradi.

Nafas olish organizmga hayot bag'ishlovchi fizologig funksiyani bajaradi. Shu bilan birga u nutq energiya bazasi bo'lib ham hisoblanadi. Nutq so'zlayotganda nafas olish-fonatsion nafas olish deyiladi (rengo-tovush). Kundalik hayotidagi nutq asosan dialog shaklida bo'ladi. Shuning uchun ham nafas olish ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydi. Dars davomida o'qituvchi juda ko'p gapiradi, yangi mavzuni tushuntiradi, ma'ruza o'qiydi. Qaysi mushaklarning ishtirot etishiga qarab nafas olish 4 turga bo'linadi.

1. Yuqori nafas-elkalarni ko'tarilib tushishi va ko'krak qafasining yuqori qismi ishtirotida hosil qilinadi. Bu bo'sh yuzaki nafas bo'lib, unda o'pkaning faqat yuqori qismi ishtirot etadi.
2. Ko'krak nafas-qovug'lar o'rtasidagi mushaklar yordamida hosil bo'ladi. Bunla ko'proq nafasning ko'ndalang hajmi o'zgaradi.
3. Diafragma ishtirotidagi nafas-ko'krak nafasning bo'ylama hajmini oshishi hisobga vujudga keladi.

4. Diafragma-qovurg'ali nafas-diafragmaning qisqartirish, qovug'lar oralig'idagi nafas mushaklari ishtirokida vujudga keladi.

Tovush – chiqarilayotgan havo hiqqildoqdan o'tishi paytida ovoz pardalarining tebranishi natijasida vujudga keladi. Tovush o'zining qo'yidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

Tovush kuchi-tovush apparati organlarning faol ishlashiga bog'liq. Chiqarilayotgan havo oqimining tovush tarqashiga bo'lgan bosimi qancha katta bo'lsa, tovush ham shuncha ko'chli bo'ladi.

Tovush parvozi-tovushning uzoq masofaga uzatilishi va qattiqligini sozlab olish.

Tovush ixchamligi va harakatchanligi-uni mazmuniga, tinglovchi moslab o'zgartira olish imkoniyatini bildiradi.

Diapazon-tovush hajmi bo'lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi oqang bilan belgilanadi.

Diapazon qisqarishi nutqni bir ohanli bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Bir ohangda gapirish axborotni idrok qilishni susaytiradi, uyquni keltiradi.

Tembr-tovush rangdorligi, yorqinligi hamda uning yuqumligi va alohidaligidir.

Diktsiya – aniq talaffuz qilish. Talaffuzning aniqligi o'qituvchi nutqining o'quvchilar tomonidan to'g'ri tushunilishini ta'minlaydi.

Ritm-bu ayrim so'z va bo'g'inxarning aytilishi muddati va to'xtash, nutq va ifodalarning navbat bilan o'z o'rnila ishlatilishni bildiradi.

Ritm nutqning eng asosiy qisimdir, chunki, nutq ohangi va to'xtamlar ham tinglovchilarga beixtiyor o'zgacha hissiy ta'sir ko'rsatadi.

So'zlayotganda obrazga kirish, ovozni kerakli joyda pastlatish, ohista gapirish o'qituvchi mahoratiga bog'liq.

Ma'lumki, til inson aqliy faoliyatining eng oliv va asosiy vositasidir. Chunki insonni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan ham til emasmi! Shunday ekan, inson aqliy faoliyatining eng oliv mahsullari tafakkur mevalari til va nutq orqali ro'yobga chiqadi. Til tafakkur mahsullarining hayotga tadbiq etilishiga vosita bo'lувchi qudratli quroldir. Qadimgi Sharq pedagogikasining asarlaridan biri «Qobusnom» da ham til va nutqqa alohida e'tibor berilganki, ular hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganini ko'ramiz. Kaykovus hamma hunarlar ichida so'z hunari-notiqlikni a'lo deb biladi: Bilginki, hamma hunardan so'z hunari yaxshi.

Shuning uchun ham kishi suhandon va notiq bo'lishini ta'kidlaydi. Muallif notiqlikni egallashning yo'lini tinimsiz mehnat va o'rganish deb uqtiradi.

Prezident I. A. Karimov ta'kidlaganidek, biz milliy merosimizdan bahramand bo'lmog'imiz lozim. Buni esa ajdodlarimiz yozib qoldirgan boy merosimizni yana ham talaba yoshlar ongiga singdirib borish lozim. Buyuk bobomiz A. Navoiy so'zga shunday baho bergen:

So'zdurki, nishon borur ulukka jondin,

So'zdurki, berur jonga xabar jonondin.

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilki, guxari sharifroq yo'q ondin.

Tilning oljanob imkoniyatlari nutq orqali ochiladi. Nutq bo'lmas ekan, tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi. A. Navoiy til va nutq munosabatlarini shunday izohlaydi: «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq nomaqbul bo'lib chiqsa, tilning-ofatidir». Demak, til har qancha qudratli zo'r bo'lmasin, u nutq uchun qurol sifatida hizmat qilarkan. Uning kuch-qudrati nutq jarayonida namoyon bo'lar ekan. Agar til o'q bo'lsa, nutq kamondir. O'qning qudrati kamoning qobiliyatiga ham bog'liq.

Til millatning noyob xazinasi bo'lib, doimo og'zaki va yozma holda namoyon bo'lgan. Boy, yorqin, maroqli nutq u kim bo'lishidan qat'iy nazar inson nuri hisoblangan,

Nutq madaniyati juda katta va keng soha bo'lib, u bolaning kundalik oddiy salom-aligidan tortib, kimga nimani, qachon, qaerda va qanday so'zlashigacha bo'lgan barcha nutqiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Nutq madaniyati faqat nutqni egallash yo'llarini emas, balki undan foydalanish madaniyatini ham tarbiyalaydp. Nutq madaniyati o'qituvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarida to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgilarini tarbiyalashga hizmat qilmog'i lozim. Shundan kelib chiqqan holda nutq madaniyati: o'z fikrini nutq sharoitga mos: ravishda turli sharoitlarda bayon eta olish vositalarini, ma`noni turli shakllarda bera olish yo'llarini, badiiy, ilmiy, ijtimoiy asarlarni o'rganib, ular haqidagi fikr-mulohazani, shaxsiy munosabatni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon eta olish madaniyatini ifodalaydi.

Inson nutqi rang-barang. Do'stlarning suhbati ham, san`atkorning sahnadagi monologi ham, talabaning auditoriyadagi javobi ham nutqning bir ko'rinishidir.

Sharoitga qarab nutq turli xilda namoyon bo'ladi. U ba'zan istak-tilak, ba`zan chaqiriq-murojaat, ba`zan esa inson quvonchi yoki ruhiy istirobi shaklida ifodalanadi. Nutq ichki va tashqi ko'rinishlarga ega. Ichki nutq odamnnng o'z ichida gapiradigan passiv nutqi bo'lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o'z ko'ziga qaratilgan nutq sanaladi va uni nazorat qilib bo'lmaydi. Ichki nutq og'zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi.

Shuning uchun nutq madaniyatini ichki nutqini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berishga to'g'ri keladi. Tashqi nutq boshqalarga va nazorat qilish mumkin bo'lgan faol nutq bo'lib, u og'zaki va yozma ko'rinishlarga ega. Og'zaki nutq odatdag'i tovushli so'zlashuv nutqi bo'lib, bu nutq ko'proq-ohang va turli imoshoralar bilan aloqadordir. Og'zaki nutqda fikrni ixcham ifodalash maqsadida to'liqsiz gaplar keng qo'llaniladi. Nutqning bu turi bir yoki bir necha kishi tomonidan amalga oshiriladi va monologik, dialogik shaklda namoyon bo'ladi. Monologik nutq-bir kishining boshqalarga qaratilgan nutqi hisoblanadi va hikoya qilish, xabar berish, o'qiganni qayta so'zlab berish, o'zi savol berib, o'zi javob berish shaklida namoyon bo'ladi. Dialogik nutq-ikki va undan ortiq kishi o'rtasida amalga oshiriladi. Nutqning bu ko'rinishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bu nutq keng jumlalarni talab etmaydi. Shuning uchun dialogik nutq tarkibida to'liqsiz gaplar juda ko'p bo'ladi. Bunday nutq nutq tarkibida so'roq va undov gaplar ham

uchraydi. Og'zaki dialogik nutqda so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan bir qator vositalar: mimika, imo-ishoralar, ohang ham shunga kiradi. O'qituvchilarda shu vositalarni tarbiyalash muhim vazifalardan biridir.

O'quvchilar tomonidan o'quv materialni to'g'ri yaxshi tushunib olish jarayoni o'qituvchi nutqinnng mukammaliligiga bog'liqidir. Odatda o'quvchilar muallimnnng so'zlasha olish mahorati, qobiliyatini qay darajada ekanligi tez e'tibor beradilar. Muallim tomonidan ba'zn bir so'zlarni, tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilinsa o'quvchilar orasida kulgiga, mazax qilishga olib keladi. Shuningdek, bir ohangdagi nutq o'quvchilarni zeriktiradi, aksincha ochiq ko'ngil bilan o'gzakilgan suhbat davomida ko'tarinki ruhdagi nutq ohang, ya`ni katta shavq-zavq bilan olib boriladigan bunday suxbat o'quvchilarga qalbakidek tuyular va o'qituvchiga nisbatan ishonchsizlnk uyg'otadi.

Ba'zi birlar, so'z ham uning o'ziga xosligi ham insonga in'om etilgan deb hisoblaydilar. Lekin zamonaviy fiziologik ilmiy tajriba, ovoz sifatini tubdan o'zgartirishi mumknn ekanligini tasdiqlaydi. Bu fikrni tarixini misollar ham tasdiqlashi mumkin. Masalan, qadimgi Gretsiyalik Demosfen o'zidagi ba'zi bir nuqsonlarnn engib, o'sha davrning buyuk va'zoni bo'lib etishgan.


Bu borada biz hikmatli so'zlarni misol qilsak bo'ladi:

Mashaqqatsiz qo'lga kirmas hech istak,  
Imillagan misoli bekordir.  
Tani guldek nozik o'ta tengbadan  
Dag'al hammol yaxshiroq mingbordir.

### Xisrov Dehlaviy

Nafas- olish: ikki xil bo'ladi oddiy nafras olish va fonatsion nafas olish. Fonatsion nafas olishning oddiy nafas olishdan farqi nimada?

Oddiy nafas olish vaqtida burun orqali olayotgan va chiqarilayotgan nafasning olinishi va chiqarlish vaqtini teng va qisqa bo'ladi.



Ovoz nafas chiqarishdan xosil bo'ladi. Shuning uchun doimiy so'zlaydiganlar uchun nafas olishdagi izchillik-nafas olish, to'xtash va uzoqroq davom etgann nafas chiqarishdan iborat bo'lishi kerak.

O'qituvchining nafas olishini tartibga solish uchun juda ko'plab mashqlar belgilangan. Shulardan biri, erga chalqancha yotgan xolda burun orqali uzoq vaqt

davom etgan chuqur nafas olish yoki shu holatni tik turgan holda qaytarish nafas olish organlarini to'g'ri ishlashiga yordam beradi.

Ko'pchilik o'qituvchilar o'rtasida tabiiy ovozga, ya'ni ham jarangdor, yoqimli ovozga ega bo'lganlarni uchratish mumkin. Lekin tabiiy ovoz ham vaqt bilan o'z kuchini yo'qotadi, o'zgaradi. Ya'ni shuni aytib o'tish kerakki, har bir inson ovozi kuchli, o'zgaruvchan va jarangdor bo'lishi mumkin.

### **O'qituvchi ovozining xususiyatlari nimadan iborat:**

1. Bu ovoznnng kuchi. Ovoz kuchi tovush organlarini ishiga, ularning faoliyatiga hamda nafas chiqarishga bog'liqdir.
2. Tovushning qancha masofaga etkazilishi. Bu bilan mutaxassislar o'qituvchi ovozini qay masofaga etkaza olish va uni qay yo'l bilan sozlashini aniqlab oladilar.
3. O'qituvchi nutqida ovozning harakati va o'zgaruvchanligi muhim ahamiyatga ega. Tovush harakati uning baland-pastligiga bog'liq. Odam ovozi osongina 2 oktava balandligida o'zgarib turishi mumkin, ammo kundalik nutqimizda 3-5 nota kuchida ovoz ishlatilishi mumkin.
4. Diapazon-ovozi ko'lami, kengligi. Uiing chegarasi tovushning qanchalik past yoki balandligiga bog'liq. Ovoz chegarasinnng kichrayishi bir xil ohangdagi nutqga aylanadi.
5. Tovushnnng o'ziga xos sifatlari-ovozi tembriga bog'liq, ya'ni mayin, aniq, jarangdor ovoz bo'lishiga bog'liq. Yuqorida aytib o'tilganlar yillar davomi oshnriladi. Ovozni tarbiyalash-bu uzoq davom etuvchi oshiruvchi jarayondir.
6. O'qituvchi ovozining gigienasi ustida bir necha so'z aytamiz. Mutaxassislarni o'tkazgan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, doimo nutq bilan bog'liq bo'lgan kasb egalari orasida tovush organlarini kasallanishi juda ko'pdir. O'qituvchilar orasida bunday kasallanganlar 40.2% tashkil etadi.

Ovoz buzilishining sabablari xilma-xildir. Asosan to'rttasi juda ko'p uchraydi:

- har kuni ovozga beriladigan ortiqcha harakat, nagruzka;
- ovozdan to'g'ri foydalanmaslik;
- ovozi gigienasiga amal qilmaslik;
- ovozi organlari kuchining tug'ma pastligi.

Professional kasallikni oldin tovush giginenasi bilan shug'ullanish va shu joyida mактабда ба'зи шароитларга риояя qilish kerak. O'qituvchi har kungi ishdan so'ng 2-3 soatga uzoq gapirishdan o'zini tiyishi kerak. Shuning uchun bir qatorda o'qituvchilar nafas olish yo'li, nerv tizimi, ovqatlanish tartibiga ham e'tibor berishi kerak. Juda ham sovuq yoki issiq, achchiq, spirli ichimliklarni iste`mol qilish; chekish og'iz bo'shlig'i va tovush organlariga salbiy ta'sir etadi.

Og'iz bo'shlig'i va tovush organlarini kasallananashini oldini olish uchun osh sodasi va yodni aralashtirib hosil bo'lган suyuqlik bilan og'izni vaqtı-vaqqı bilan chayqab turish kerak.

Shu borada yana bir necha maslahat:

Bir ohangdagi nutq ovoz berish apparatlarini tez charchatadi, chunki bu vaqtida tovush organlaridan faqat bir guruh muskullar ishlaydi. Nutq qancha ifodali bo'lsa, ovoz shuncha sog'lom bo'ladi:

- bo'rning har kuni changinn yutish zararli, shunnng uchun doska artadigan mato nam bo'lishi kerak;
- Darsdan so'ng o'qituvchi sovuq havoda tez yurib bo'lmaydi, chunki sovuq havo nafas olish va tovush organlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Diktsiya-talaffuz tarzi, talaffuzni aniq ravshanligi darajasi.

O'qituvchi uchun to'g'ri talaffuz-eng kerakli qurol hisoblanadi, chunkn o'quvchilar o'qituvchi tushunishi uchun nutqi, talaffuzi ravon, har bir bo'g'in, so'z va tovushlarni aniq aytishi kerak.

Ritmika-ovozi maromi yoki vazni. Ba`zi bir so'zlarning, bo'g'irlarning talaffuzi, ularning tezligi-nutqning sur`atini tashkil etadi.

Ovoz tezligi-har bir o'qituvchining fazilati nutq mazmuni va muomala vaziyatiga bog'liq.

Pauza temp va nutqning yoqimli bo'lishi nutq ohangini tashkil etadi.

Bir ohangda nutq zerikarli bo'lib, qiziqish va diqqatini pasaytiradi.

Demak, nutq texnikasi haqidagi tushunchalar ega bo'lgach endi doimiy mashq qilishga o'tish kerak. Nafas olishni bnr maromga keltirish, talaffuzning aniq-ravshanligi darajasinn mashq qilish, tovush organlarini mustahkamlash kerak.

O'qituvchi ovozi ravon, jarangdor, aniq va o'ziga jalb etadigan bo'lishi kerak. O'quv materialini qiyin joylarini o'qituvchi ovozini sekinlatgan holda tushuntirib, qolgan vaqtida tezroq gapirish mumkin.

Ayniqsa mavzu asosida xulosa vaqtida, ya`ni qoida, qonun, aqidalarni ifodalashda ovoz tezligini kamaytirish kerak.

Xulosa qilib aytganda, har bir o'qituvchida nutq madaniyati bo'lishi zarur, chunki har bir pedagog o'z nutqi, chirolyi va ravon o'qishi, muomala madaniyati bilan o'quvchilarga namuna bo'ladi.

O'qituvchi doimo o'zining nutq madaniyati ustida ishlashi va takomillashtirib borishi lozim.

**Tayanch tushunchalar:** nutq madaniyati, fikrni og'zaki bayon etish, yozma bayon etish, notiqlik, notiqlik san'ati, jonli nutq, suhbat, muhokama, bfys-munozara, konspekt, annotatsiya, referat, avtobiografiya, hisobot, ma'ruza.

Har bir o'qituvchi chuqur bilimli, yuksak pedagogik qobiliyatli, nutq madaniyatini ayniqsa, notiqlik san'atini egallagan bo'lishi lozim. Odatda o'quvchilar, a pedagogga o'ta talabchan tanqidiy ko'z bilan qaraydilar. Birinchi uchrashuvdayoq uning pedagogik mahoratiga, bilim saviyasiga, o'zini tutishi gap, so'zi o'quvchilar bilan muomalasiga qarab, hukm chiqaradilar. Shu bois pedagogdan shirin so'z, xush muomala, gapga chechan bo'lish talab etiladi.

O'qituvchining nutqi mazmunli, mantiqan izchil, ravon, uslubi jihatdan hammabop, tinglovchini o'ziga jalb etadigan, ta'sirchan va yoqimli bo'lishi zarur.

Ma'ruza, albatta, eng muhimi ilmiy saviyasining yuqori, mazmunining chuqur bo'lishida. Biroq uning tasiri, samarasi, tinglovchilar xotirasida qanchalik uzoq saqlanshi, ularning ongiga singib, unutilmas iz qoldirishi o'qituvchining nutq madaniyatiga bog'liqligini doim yodda tutish kerak. Ma'ruza materiali uning mazmuni bo'lsa, nutq madaniyati uning shaklidir. Mazmunsiz shakl quruq, puch, asossiz; shaklsiz mazmun esa-xunuk, badbashara, ko'rimsiz, ta'sirsizdir.

Nutq so'zlash, jumladan, ma'ruza o'qish sharaflı, ayni damda, murakkab va masuliyatli ish. Har qanday ma'ruza muayyan mazmunga bag'ishlangan, maqsadga yo'naltirilgan, tinglovchilarga ma'qul manzur bo'lishi kerak, qalbiga huzur bag'ishlab, boy manaviy oziq berishi, aqlini peshlashi; o'quvchiga ibrat bo'ladigan saboq berishi lozim.

Bir fransuz olimi: "fanning chegarasi go'yo ufqqa o'xshaydi, unga qanchalik yaqinlashaversang, u shunchalik uzoqlashaveradi", degan ekan. Shunga o'xshab, nutq madaniyati ayniqsa notiqlik san'ati ham cheksiz. Istiqlol tufayli jamiyatimizning o'rta va katta yoshdagi a'solari o'rtasida shirinsuxanlik, xushmuomalalik, so'zamollik va muloyimlik eng yuksak insoniy fazilatlardan biri sifatida tobora ko'proq, kengroq qaror topib bormoqda, nutq madaniyati, notiqlik san'ati rivojlanmoqda. Nutq madaniyati nutqning adabiy til qoidalariga asoslangan, muayyan talablarga bo'ysungan holda namoyon bo'lishidir. U notiqlik san'atining muhim tarkibiy qismi bo'lib, asosiy talabi nutqni ilmiy, sermazmun, aniq, ravshan, tiniq, ravon, to'g'ri, ta'sirli, badiiy, mantiqiy, jarangdor talqin qilishdan iborat. Buning uchun nnnutq, avvalo, adabiy til qonunlariga to'liq javob berishi lozim.

Nutq madaniyati yakka shahslar nutqi orqali namoyon bo'ladigan ijtimoiy hodisadir. U insoniyat, jamiyat, ilm-fan tehnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi.

Inson madaniyati, uning ilmiy saviyasi, manaviy boyligiga mutanosib ravishta yuksalib boraveradi. Bu yuksalish esa hamisha dialektikadagi miqdor o'zgarishlarini sifat o'zgarishlariga o'tishi, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni inkor kabi qonunlarga muvofiq sodir bo'ladi. Bu jarayonda o'zbek xalqi allomalarining, yozuvchilar, nashriyot va matbuot hodimlarining xizmati g'oyat katta.

O'zbek adabiy tili va nutq madaniyati buyuk mutaffakir shoir Alisher Navoiy faoliyatida sayqal topgan. O'sha davrlardayoq uning o'ziga xos qoida, meyor, talab va xususiyatlari mavjud bo'lgan. Keyingi davrlarda yashagan Bobur, Muhammad solih, Gulxaniy, Uvaysiy, Nodira, Mashrab, Muqumiyl kabi so'z ustalarining asarlarida ilgarigi nutq madaniyati me'yorlari, sxandonligi muayyan darajada aks etgan. Pedagogik muloqot jarayonida o'qituvchi fikrni og'zaki bayon etishning quyidagi turlaridan foydalanadi: savol-javob; muhokama;bahs-munozara.

Fikrni yozma bayon etishda esa: bayon (mavzu mazmunini o'z so'zlar bilan ifodalash); konspekt, siqiq xulosa (pezyume) ; annotatsiya (badiiy, ilmiy, metodik asarlarning umumiy mazmunini bayon etilgan xabarnoma), taqriz, referat, sharh

(umumiy obzor), biografiya va avtobiografiya, tavsifnomalar, interv'yu, ma'ruza, hisobot, maktub (noma), kundalik) kabi turlardan to'g'ri foydalana bilishi zarur.

Nutq madaniyati va notiqlik san'atining asosiy ususllari sifatida: nutq, va muloqotda til, so'z boyligidan foydalanish; qiyoslash; nutq, ma'ruza, suhbat, muloqotlarga tarbiyaviy, g'oyaviy jihatlarni singdirish; xulosa chiqarish, savollarga javob berish kabilardan keng foydalanish lozim.

Til boyligidan foydalanish usuli pedagogning nutq madaniyatida hal qilyvchi o'rinni tutadi. Pedagog nutqi madaniyligi – uning bilim darajasi, aqlidrokining ko'lami, fikrlashdagi yetykligi bilan bir qatorda – ona tilining boyligidan foydalana bilishiga ham bog'liq.

Pedagog tili tinglovchilarining his-tuyg'ularini uyg'otadigan, ularni qiziqtiradigan, diqqat-e'tiborini nutq mavzysiga jalb etadigan bo'lishi lozim. Mavzuni tushunarli va ishonarli qilib bayon etish pedagog muvaffaqiyatining garovidir.

Pedagogning nutq madaniyatini egallashida ona tilidan keyingi o'rinni badiiy adabiyot egallaydi. Uni myntazam va muttasil o'qib boorish notiqning so'z boyligini jshirishiga, tasvirli ifodalarni, badiiy iboralarni ko'proq egallab olishiga, xalq orasida keng tarqalgan adabiy til boyliklarini ozlashtirib olishiga katta yordam beradi.

Pedagogning so'z boyligi katta va xilma-xil bo'lsa, unung nutqi jozibali hamda ko'rkar bo'ladi. Buning uchun o'z mutaxassisligi sjhasidagi barcha asosiy tushuncha, atama va kategoriyalarni puhta bilishi, o'z o'rnida, yani aralashtirmasdan, almashtirmasdan qo'llay olishi kerak. Buning uchun pedagog ilmiy, badiiy adabiyotni. Izohli lyg'atlarni, entsiklopediyalarni ko'p o'q'ishi, mutolaa qilishi, notanish so'zlarni yon daftariga izohlab yozib olishi, vaqt-vaqt bilan takrorlab turishi tavsiya etiladi.

Biroq pedagog so'z, atama (termin), hikmatli so'z, maqol, ideomatik (aniq tarjima qilib bo'lmaydigan iboralarmi nafaqat bilishi, balki ularni mihirlik bilan o'z o'rnida ishlata olishi

Jonli, qiziqrarli, ravon, tushunarli, zeriktirmaydigan qilib sozlay olish ham zarur. Shundagina uning bazi, ma'ruzasi badhazm bo'lmaydi, talabalarni o'ziga zanjirband qilib oladi, shunda ular vaqto'tganini ham, charchaganini ham bilmay qoladilar.

Pedagog nimani gapirishnigina emas, balki qanday gapirishni ham bilish kerak.

Mohir pedagog nutq madaniyatini targ'ib qiluvchi, bunga qiziquvchilarga murabbiylik, ustozlik qiluvchi kishi hamdir. Nutq madaniyati nazariyotchilaridan biri aytganidek, o'z ona tilini o'rganish, undan mohirona foydalanish-ulug'ish; agar kishi tilni aniq, ravshan bilib olmasa, insoniyat tafakkurining eng buyuk nutqlari, eng chuqur bilimlar va g'oyat otashin his-tuyg'ular unga noma'lum bo'lib qolaveradi; binobarin, so'z fikrni ifodalash qurolidir.

### **Tayanch tushunchalar:**

Til, so'z va nutq, nutq shakllari, og'zaki va yozma nutq, nutqning uslubiy turlari, nutq organlari, ovoz texnikasi, avtogen mashqlar, jg'zaki nutq texnikasi.

### **N a z o r a t s a v o l l a r i:**

1. Nutq texnikasi nima?
2. Nutqning qanday shakllari mavjud?
3. Nutq organlariga nimalar kiradi?
4. Diktsiya, ritm, tembr tushunchalarini izohlang?

### **Adabiyotlar:**

1. Tarbiyaviy ish metodikasi L.V. Ruvinskiy taxriri ostida T. 1994
2. Y. Sh. Avarov. Tarbiyalash mahorati. Toshkent. 1994
3. B. N. Golovni. Osnovo' kul'turo' rechi. M. 1992.

## Umumiy pedagogika fanidan mustaqil ish mavzulari

<b>№</b>	<b>Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar</b>	<b>Berilgan topshiriqlar</b>	<b>Bajarish</b>	<b>Hajmi soatda</b>
<b>1</b>	Sharq va G'arbda komil inson qiyofasini o'rganilishiga bo'lgan tarixiy yondashuv	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	1-hafta	2
<b>2</b>	Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2-hafta	4
<b>3</b>	Pedagogik fikr tarixi va mакtab amaliyotida o'qituvchi mahorati	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	3-hafta	4
<b>4</b>	O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4-hafta	2
<b>5</b>	Pedagogik boshqaruv mahorat	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	5-hafta	4
<b>6</b>	O'qituvchining kommunikativ qobiliyati	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	6-hafta	2
<b>7</b>	Pedagogik odob va pedagogic nazookat	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	7-hafta	4
<b>8</b>	Pedagogik texnika	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	8-hafta	2
<b>9</b>	Nutq texnikasi	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	9-hafta	4
<b>10</b>	Nutq madaniyati, notiqlik san'ati va omma (o'quvchilar)oldida nutq so'zlash	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	10-hafta	2
<b>11</b>	O'qituvchi va o'quvchi hamkorligi (pedagogik hamkorlik)	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	11-hafta	4
<b>12</b>	Pedagogik nizolar va ularga oqilona vondashuv	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	12-hafta	2
<b>13</b>	Ta'lim va tarbiya jarayonlarida muvaffaqiyatlari vaziyatlarni yaratish	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	13-hafta	4
<b>14</b>	Pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	14-hafta	2
<b>15</b>	Pedagogik faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashish va pedagogik tajriba to'plash	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	15-hafta	<b>4</b>
	<b>Ja'mi</b>			<b>30</b>

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. K. Nishonov, S. Inomova, Hasanov R. Pedagogika tarixi.- T.: O`qituvchi, 1996
2. Hasanboyev J, Hasanboyeva O., Homidov H, Pedagogika tarixi.- T.: O`qituvchi, 1997
3. Safo Ochil., Hoshimov K O`zbek pedagogikasi analogiyasi – T.: O`qituvchi, 1999.
4. Safo Ochil., Hoshimov K O`zbek pedagogikasi analogiyasi – T.: O`qituvchi, 2010.
5. Niyozov G’, Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg’ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.
6. Xayrullayev M Ma`naviyat yulduzlari. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
- 7.Karimov. I.A. Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. Sharq, 1997y
- 8.O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. –T. Sharq. 1997.
- 9.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T. Sharq 1997y
- 10.Abu Nasr Farobi. Fozil odamlar shahri – T : A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993 y.
- 11.Ajdodlar o’g’iti. Hikmatlar, hikoyatlar, tamsiyalar. To’plovchi B. Ahmedov. –T. : Cho’pon 1991y
- 12.Azarov.Yu. I. Bolalarni sevish san`ati. – T. O’qituvchi,1992 y
- 13.Abu Ali ibn Sino. Ziynat.- T: Sharq nashriyot matbaa kontserni, 1992 y
- 14.Amur Temur o’gitlari B. Ahmedov. A. Aminov. Nashrga tayyorlagan- T: Navro’z, 1992 y
- 15.Agmedov.A Ulg’bek. – T: Fan, 1991 y
- 16.Kaykovus. Qobusnoma.- T O’qituvchi. 1992 y
- 17.Muomala treningi- T: O’zMU, 1994 y
- 18.Muhammad payg’ambar qissasi. Hadislar.- T: Kamalak, 1991 y
- 19.Muhiddinov. A.G O’quv jarayonida nutq faoliyati.- T: o’qituvchi,1995 y
- 20.Navoiy Alisher. Mahbub ul –qulub. Asarlar 15-tom. T: 1966 y
- 21.Rajabov.S Mutaxassislikka kirish T: O’qituvchi. 1991 y
- 22.Rajabov S. Pedagogik fanining allamalari.- T: O’qituvchi 1991 y
- 23.Rasmiy va norasmiy uchrashuvlar odobnomasi. T. Adolat 1992 y
- 24.Raximov S. To’raqulov E. Abu Rayhon Beruniy Ruhiyat va ta’lim-tarbiya to’g’risida.- T: 1992 y
- 25.Rashidov A. Milliy an`analar tarbiya manbai. Halq ta`limi jurnali .1992 y 1-son.
- 26.Saidnazarov F. Saidnazarov I. Tarbiya: odob va oqibat. –T : O’zbekiston 1991
27. Tarbiyaviy ish metodikasi. L. I. Ruvinskiy tahriri ostida – T: O’qituvchi, 1991 y

- 28.To'xliyev B. Yusuf Xos Xojibining “ Qutadg'u bilik “ asari. –T: Yulduzcha 1991 y
- 29.Faxr-ul – Banot Sig'batullog qizi. Oila saboqlari. – T: Yozuvchi 1992 y
- 30.Frolov F. T. Yosh direktor maktabi. –T: O'qituvchi 1991 y.
- 31.Xikmatnoma. To'plam To'plovchi N. eshonqulov. – T: CHO'lpon, 1992 y
- 32.Shomaqsudov. Shorahmedov Sh. Xikmatnoma. –T: 1990y.
- 33.O'qituvchilik ixtisosiga kirish kursiga metodik ko'rsatmalar. Tuzuvchilar: M. Zaharina, S.X. Temurova. V.G. Sharova. –T:
- 34.Qudratov. T. Nutq madaniyati asoslari. –T: O'qituvchi 1993y.

## **"Umumiy pedagogika" fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezonlari:**

Talabaning "Umumiy pedagogika" fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda quyidagi mezonlarga asoslaniladi:

a) 86-100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

1) fan metodologiyasi, pedagogik antropologiya, pedagogik jarayon mohiyati, pedagogik faoliyat mazmuni, pedagog shaxsida namoyon bo'lishi zarur bo'lgan sifatlar, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'naliishlari, ilmiy-pedagogik tadqiqot ob'ektlari va metodlari, ta'limiy va tarbiyaviy tamoyillar, an'anaviy va zamonaviy pedagogik ta'limotlar, ta'lim va tarbiya shakllari, metodlari, vositalari, ilg'or pedagogik texnologiyalar, maxsus pedagogikaning asosiy yo'naliishlari, milliy pedagogik meros va jahon ta'limi tajribasining yosh avlodni shakllantirishdagi ahamiyati, komil inson, malakali mutaxassisni tayyorlash jarayonining o'ziga xos jihatlari to'g'risida aniq bilimlarga ega bo'lishi; 2) ta'lim va tarbiya jarayonida milliy pedagogik meros namunalari, jahon ta'limi an'analaridan foydalanish, pedagogik faoliyatni rejalshtirish, kasbiy faoliyatni tashkil etishda ta'lim-tarbiyaning zamonaviy shakl, metod, vosita va texnologiyalarini qo'llash, o'quvchilarining bilimlarini to'g'ri tashxis qilish va xolis baholash, qobiliyatli, iqtidorli o'quvchilarni tanlay bilish, ularni rag'batlantirish, iste'dodlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini belgilash, o'quvchilar jamoalarini boshqarish, ta'lim va tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish, pedagogik faoliyat mohiyatini yorituvchi ish hujjatlarini to'g'ri yuritish, ta'lim menejmentini oqilona olib borish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

b) 71-85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

1) fan metodologiyasi, pedagogik antropologiya, pedagogik jarayon mohiyati, pedagogik faoliyat mazmuni, pedagog shaxsida namoyon bo'lishi zarur bo'lgan sifatlar, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'naliishlari, ilmiy-pedagogik tadqiqot ob'ektlari va metodlari, ta'limiy va tarbiyaviy tamoyillar, an'anaviy va zamonaviy pedagogik ta'limotlar, ta'lim va tarbiya shakllari, metodlari, vositalari, ilg'or pedagogik texnologiyalar, maxsus pedagogikaning asosiy yo'naliishlari, milliy pedagogik meros va jahon ta'limi tajribasining yosh avlodni shakllantirishdagi ahamiyati, komil inson, malakali mutaxassisni tayyorlash jarayonining o'ziga xos jihatlari to'g'risida bilimlarga ega bo'lishi; 2) ta'lim va tarbiya jarayonida milliy pedagogik meros namunalari, kasbiy faoliyatni tashkil etishda ta'lim-tarbiyaning zamonaviy shakl, metod, vositalarni qo'llash, o'quvchilarining bilimlarini to'g'ri tashxis qilish va xolis baholash, qobiliyatli, iqtidorli o'quvchilarni tanlay bilish, ularni rag'batlantirish, o'quvchilar jamoalarini boshqarish, ta'lim va tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish, pedagogik faoliyat mohiyatini yorituvchi ish hujjatlarini to'g'ri yuritish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

c) 56-70 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

1) pedagogik faoliyat mazmuni, pedagog shaxsida namoyon bo'lishi zarur bo'lgan sifatlar, ta'limiy va tarbiyaviy tamoyillar, an'anaviy va zamonaviy pedagogik ta'limotlar, ta'lim va tarbiya shakllari, metodlari, vositalari, maxsus pedagogikaning asosiy yo'naliishlari, komil inson to'g'risidagi umumiy bilimlarga ega bo'lishi;

